



FAN VA JAMIYAT ILIM HÁM JÁMIYET



2025/8-2




ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayman baslap shuga basladi

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MEKTEPKE
SHEKEMGI HÁM MEKTEP BILIMLENDIRIWI
MINISTRILIGI**



**ÁJINIYAZ ATÍNDAGÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI**



ILIM hám JÁMIYET

Ilmiy-metodikaliq jurnal

Seriya: Pedagogika ilimleri. Psixologiya ilimleri

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Pedagogika fanlari. Psixologiya fanlari

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

Серия: Педагогические науки. Психологические науки

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

Series: Pedagogical sciences. Psychological sciences

№ 8/2

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis
mámleketlik pedagogikalıq instituti hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti bashlıǵı, NMPI rektori – A.T.UBBIYEV
Bas redaktor – A.K.PAZÍLOV**

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ

p.f.b.f.d. doc. **Abdazimov A.** (Tashkent);
t.i.d., prof. **Abdullaeva Y.** (Nókis);
ps.i.d., prof. **Abdirasulov R.** (Jizzax);
p.i.d.(DSc), doc. **Allambergenova M.** (Nókis);
p.i.b.f.d., doc. **Babaniyazova N.** (Tashkent);
p.i.d. (DSc), doc. **Bekimbetova G.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Darmenov J.** (Nókis);
f.i.k., doc. **Dilmanov I.** (Nókis);
ps.i.d. (DSc), prof. **Elmuratova A.** (Nókis);
f.i.b.f.d., prof. **Fedakar P.** (Turkiya);
p.i.d., prof. **Xodjaniyazov S.** (Urgench);
p.i.k., doc. **Jumabaev N.** (Nókis);
b.i.d., prof. **Jumamuratov M.** (Nókis);
p.i.d., (DSc), prof. **Jumasheva G.** (Nókis);
f.i.d., prof. **Ibragimov Y.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), doc. **Kadirov K.** (Nókis);
f.i.k., prof. **Kochanov Q.** (Nókis);

p.i.d. (DSc), prof. **Qarlibaeva G.** (Nókis);
f.i.d. (DSc), prof. **Qurambaeva G.** (Tashkent);
f.i.d. (DSc), prof. **Qurbaniyazov G.** (Nókis);
p.i.d.(DSc), prof. **Qurbaniyazova Z.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Makovchik A.** (Minsk);
p.i.k., doc. **Mamirbaeva D.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Matjanov N.** (Nókis);
f.i.d., prof. **Najimov P.** (Nókis);
p.i.d., (DSc), prof. **Nauruzbaeva A.** (Nókis);
ps.i.d. (DSc) **Nurimbetova E.** (Nókis);
p.i.k., prof. **Pazilov A.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Pazilova M.** (Nókis);
f.i.d. (DSc), prof. **Pirniyazov A.** (Nókis);
p.i.k., prof. **Seytjanova U.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Seytkasimov D.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Tajieva A.** (Nókis);
p.i.k., prof. **Tegenov A.** (Nókis);
p.i.d., prof. **Utebaev T.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Ermolich S.Y.** (Minsk).

**Q.Biysenbaev – juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator**

**Juwaplı redaktorlar:
f.i.d. (DSc), doc. S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha
f.i.d. (DSc), prof. G.Kdirbaeva – rus hám inglis tilleri boyınsha
p.i.d. (DSc), prof. D.Seytkasimov – qaraqalpaq tili boyınsha**

*Jurnal 1992-jıldan «Qaraqalpaqstan muǵallimi» atamasında shıǵarıla baslaǵan. 2004-jilda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgerilip, 01-022-sanlı gúwalıq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alınǵan.
2020-jılı 7-avgustta Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanlı gúwalıq berilgen.*

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministrler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 02.00.00 – ximiya ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri;

PEDAGOGIKA ILIMLARI

Pedagogika teoriyasi hám tariyxı

TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZIMLARI

H.O.Abdusamatova – katta o'qituvchi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Tayanch so'zlar: axborot vositalari, madaniyat, kasbiy rivojlanish, globallashtirish muammolari, kommunikatsiya, media texnologiyalar.

Ключевые слова: средства информации, культура, профессиональное развитие, проблемы глобализации, коммуникация, медиатехнологии.

Key words: information tools, culture, professional development, globalization issues, communication, media technologies.

Kirish. Oliy ta'limda axborot madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari jamiyat taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ustuvorlik qiluvchi omillarni hisobga olib yaratiladi. Hozirgi kunda bunday omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot madaniyatining mantiq bilan muvofiqligi; axborot madaniyati mazmunining o'qitish tamoyillari bilan muvofiqlik darajasi (ilmiyligi, izchilligi, tizimliliği va boshqalar); axborot madaniyati tushunchasi va talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari (tabaqalashtirilgan, tuzatishga oid, ixtisoslashtirilgan ta'lim va boshqalar). Ta'lim mazmunining asosi didaktikaning eng muhim va an'anaviy muammolaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish yuzasidan A.M.Ahmedov [3:64] ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif o'z tadqiqotlarida raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari sun'iy ravishda yaratilgan hamda sinergetik ta'sirga ega bo'lgan raqamli-pedagogik jarayonning moslashuvchanlik tamoyilini elektron ta'lim muhitini intensiv yaratish funksiyasi imkoniyatlariga bosqichma-bosqich moslashtirish asosida takomillashtirishga erishgan. Axborot va kommunikatsion kompetensiya zamonaviy insonning asosiy malakalaridan biri bo'lib, birinchi navbatda, shaxsiy kompyuterni qayta ishlash bilan bog'liq turli xil muammolar va vaziyatlarni hal qilishda o'zini namoyon qiladi deb izohlagan olim N.A.Valixanova [5:15] D.Bellning fikricha, madaniyatning mohiyati ikki tomonli bo'ladi: u tabiat kuchlari ustidan inson aql-zakovatining ustunligi va inson aqidalari va fikrlari ustidan zakovatning ustunligidan iborat. Madaniyatni "ekspressiv simvolizm va ifodalilik olami", D.Bell deb tushunadi [8].

Axborot madaniyati tushunchasi hayvonot dunyosiga xos bo'lgan vaziyat signaliga rasmiy munosabatning mutlaqo insonga xos bo'lgan mazmunli tarzda o'zgartirish vaqtida (davrida) paydo bo'lish S.M.Olenevning [7] fikriga ko'ra tushintirildi. Mazmunli birliklarining almashinuvi tilning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Vozuv paydo bo'lishidan oldin tilning rivojlanishi og'zaki (verbal) metodlarning keng doirasini vujudga keltirdi, ma'no va matn bilan muomala madaniyatini yuzaga keltirdi. B.S.Abdullayeva axborot madaniyati – jamiyatda bilimlarni (axborotni) ishlab chiqarish va uning amal qilishi hamda shaxsning axborot sifatlarini shakllantirish, uning ichki dunyosini uyg'unlashtirish bilan bog'liq madaniyat sohasidir, deb hisoblaydi [1].

N.Sh.Ro'ziqulova axborot madaniyatini o'rganishda, insonga axborot makonida o'z faoliyatini erkin amalga oshirish (ishlay olish), uni shakllantirishda ishtirok etish va axborot o'zaro faoliyatiga yordam berish imkonini beradigan bilim darajasini nazarda tutadi [4].

A.A.Abdugodirov [2] axborot madaniyatini insonning hayot faoliyatining umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar ustuvor bo'lgan axborotni qabul qilish, uzatish, saqlash va undan foydalanish sohasida sifat xarakteristikasi sifatida talqin qilishadi. A.V.Mudrik [6] konsepsiyasi doirasida ta'lim beruvchi tashkilot sifatida qarash uning faoliyatini tahlil qilishni ham taqozo qiladi. Bizning fikrimizcha, internet to'garagi hayotining mazmuni asosini to'garak uyushmasining mohiyatiga mos keluvchi muloqot va ma'naviy-amaliy tadbirlar tashkil qiladi. Bir-biri bilan va tashqi dunyo bilan o'zaro faoliyatda bo'lish jarayonida yuqori sinflar o'quvchilari bir tomondan ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan o'zaro faoliyat qilishadi, ularni iste'mol qiladilar, ikkinchi tomondan esa yangilarini (qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, madaniy obyektlar) yaratadilar. Talabalarda axborot madaniyati mazmuni va asosiy maqsadi axborotlashgan jamiyatda yosh maktab o'quvchilari shaxsiyatining ijobiy tomonga rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat bo'lgan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun talabalar uchun zaruriy, maxsus tanlab olingan va davlat tomonidan tan olingan axborot kommunikatsion texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyalari tizimi sifatida izohlanadi.

Materiallar. Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirishning ishlab chiqilgan metodik tizimi doirasida amalga oshirilayotgan mexanizm turli yo'nalishlarda qay tariqa rivojlanib borishini ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy tadqiqotchilar zamonaviy jamiyatning axborot manbalari va bo'sh vaqtni o'tkazish shakllarining ustuvor o'zgarishlarining to'rtta o'ziga xos yo'nalishini ajratib ko'rsatadilar:

- kitob o'qishga qiziqish va kitoblarning axborot manbai sifatidagi ahamiyati pasayadi;
- bo'sh vaqt tarkibida televizor muhim rol o'ynaydi, biroq uning axborot manbai sifatidagi rolining bahosi keskin pasayadi;
- do'stlar bilan muloqotning ahamiyati va vaqt birligi ichidagi takrorlanish miqdori, ko'lam kamayadi;
- bo'sh vaqt tarkibida ham, axborot maydonida ham shaxsiy kompyuterlar va Internet tarmog'idan foydalanish o'z mavqiyini tez oshiradi.

Bu o'zgarishlar insonlar kompyuterlar bilan ishlashda ko'proq vaqt sarflab, ulardan nafaqat dam olish va o'yin-

kulgi vositasi, balki muhim aloqa vositasi sifatida ham foydalanib, biznes va o'quv axborotlarini olishayotganidan dalolat beradi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimiz doirasida maktab kompyuter to'garaklari faoliyatini talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish mexanizmining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqdik [8].

Oliy ta'limda kompyuter to'garagi – kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalariga qiziquvchi talabalarining oliy ta'lim negizida amal qiladigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan (shakllantirilgan) birlashmasi bo'lib, uning asosida Internetga kirish imkoniyati bilan axborot faoliyati yotadi. Tarbiyaviy tashkilot sifatida oliy ta'limda internet to'garagi shaxsni jamiyat madaniyatiga, shu jumladan, axborot madaniyatiga jalb qilish, tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodlarning kattalardan tashqarida individual rivojlanishi va ma'naviy-qadriyat yo'nalishlari, jamiyatning real ijtimoiy-kasbiy strukturasi (tuzilishiga) nisbatan tarbiyalanuvchilarning shaxsiy resurslariniga muvofiq tabaqalashtirish (differensiya qilish) shart-sharoitlarini yaratish funksiyalarini amalga oshiradi [1].

Oliy ta'limda kompyuter to'garagiga A.V.Mudrik [6] konsepsiyasi doirasida ta'lim beruvchi tashkilot sifatida qarash uning faoliyatini tahlil qilishni ham taqozo qiladi. Bizning fikrimizcha, internet to'garagi hayotining mazmuni asosini to'garak uyushmasining mohiyatiga mos keluvchi muloqot va ma'naviy-amaliy tadbirlar tashkil qiladi. Bir-biri bilan va tashqi dunyo bilan o'zaro faoliyatda bo'lish jarayonida yuqori sinflar o'quvchilari bir tomondan ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlar bilan o'zaro faoliyat qilishadi, ularni iste'mol qiladilar, ikkinchi tomondan esa yangilarini (qadriyatlar, xulq-atvor namunalarini, madaniy obyektlar) yaratadilar [6].

Oliy ta'limda Internet-to'garagi faoliyatining zaruriy tarkibiy qismlari bilim va predmetli-amaliy faoliyatdir. Jamiyatga yo'naltirilganlik, hamjamiyatiga foydalilik talabalarining turli loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishlariga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, bolalarning aksariyati kompyuter yoki individual dasturiy mahsulotlar bilan ishlashni yetarli darajada o'zlashtirmagan, shu bilan birga, o'z faoliyatlarini ijtimoiy maqbul me'yorlar asosida tashkil qilish ko'nikmalariga ham ega emas. Bu holat to'garak rahbari oldiga tizimli ta'lim va tarbiyaviy ishni tashkil qilish vazifasini qo'yadi [10].

Internet-to'garagi hayotiy faoliyatining o'ziga xos sohasi global kompyuter tarmog'ida ishlash hisoblanadi. U o'z navbatida, bilish, muloqot va predmetli-amaliy hamda ma'naviy-amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu Internetning bir qator tarkibiy qismlari tufayli amalga oshirilishi mumkin.

1. Internet butun dunyo bilan muloqot qilishning eng tez usuli hisoblanadi. Elektron pochta (e-mail) masofadan turib muloqot qilish va axborotdan foydalanish vositalari hisoblanadi. U matn, grafik tasvirlar, audio va video axborotlarni deyarli bir zumda turli makondagi qabul qiluvchiga uzatish (undan qabul qilish) imkonini beradi. Shu bilan birga, foydalanuvchilar muloqot (aloqa) vaqtida turli makonda turib pochmani tekshirishi mumkin bo'lgan vaqtgacha saqlanadi va sinxron axborot almashinuvi shu tarzda amalga oshiriladi [11].

Tadqiqotimiz natijalari Internetdan loyiha usulida muvaffaqiyatli foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Misol tariqasida g'oyalar, matnlar, chizmalar, eskizlar,

texnologiyalar va boshqalarning muhokamasini ko'rsatish mumkin. Bunda, muhokama qilayotgan shaxs, turli shakllarda (matn, grafik, rasm, audio, video va hok.) axborot bilan ta'minlash yo'li bilan, o'z isloklarini qiritishi mumkin. Albatta, bunday muloqotni amalga oshirish uchun texnik va tashkiliy jihatdan ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi zarur [12].

2. Obuna bo'lish yoki ommaviy jo'natish ro'yxatlari (Mailing lists) foydalanuvchiga muntazam ravishda o'z elektron pochta manziliga qiziqtirgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Albatta, bu ro'yxatlarni yoki ro'yxatni dastavval Internet tarmog'ida topish (ularning elektron pochta manzillari, veb-saytlarini, va hok.) va ularga obuna bo'lish zarur. Ushbu imkoniyatdan foydalanib, talabalar o'qituvchilari vaqti-vaqti bilan dunyoning turli manbalaridan o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishlari mumkin. Pochta ro'yxatlaridan (Mailing lists) foydalanganda, talabalar o'z kasbiy o'z yo'lini belgilashda axborot qo'llab-quvvatlash yordamini olishlari mumkin. Bu holda rag'batlantiruvchi (motivatsion) asosning roli ham o'ta muhim. U yangi xabarlarini olishni kutishda ham, ularni muhokama qilishda ham, faoliyatning muayyan natijasi – uni amalga oshirish ob'yektida yoki bosqichida qo'llash va aks ettirishda ham namoyon bo'ladi [3].

3. Elektron konferensiyalar (kompyuter yoki telekonferensiyalar) – virtual muloqot to'garaklari – juda keng doira (ko'p sonli) ishtirokchilarni qiziqtirgan masalalarni muhokama qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, bir ishtirokchi yuborgan xabar ushbu konferensiyaning barcha abonentlariga keladi va har bir foydalanuvchi unga kelgan barcha xabarlarini qabul qiladi. Muloqotning bu usuli bir muayyan muammo, masala bo'yicha ko'pchilikning fikrini o'rganish, uni muhokama qilish va fikr yoki takliflarini bildirish imkonini beradi. Tarbiya jarayonida bu imkoniyatdan turli-tuman bosqichlarda foydalanish mumkin. Elektron konferensiyalar, ayniqsa, muammolarga yechimlar izlash, g'oyalar, texnologiyalarni topish yo'llarini muhokama qilishda va loyihalar ustida ishlashda qiziqarli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, elektron konferensiyalar talabalarga bo'lajak kasbini izlash natijalarini muhokama guruhlari, onlayn karyera xizmatlari, konsalting (maslahat) firmalari va hokazolarda muhokama qilish imkonini beradi. Biroq, elektron konferensiyalar sifat jihatidan yangi saviyada tashkil etilgan xalqaro aloqa vositasi bo'lishi mumkinligi unutmashimiz kerak. Bunday muloqot maktab o'quvchilarining axborot madaniyati elementlarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi [4].

4. Internet tinimsiz yangilanib, o'sib boruvchi bilimlar manbaidir. Umumjahon miqyosidagi tarmoq (WWW – World Wide Web) yangi ma'lumotlarni qidirish, olish va o'z ma'lumotlarini berish imkonini beradi. Axborot izlash imkoniyatlarining noyobligi shubhasiz. World Wide Web axborotni berish (taqdim etish) hajmida ham, turlarida ham, jahon axborot resurslariga qo'shilish imkoniyatlarida ham katta imkoniyatlar ochadi.

Olinadigan natijalar Talabalarni ijtimoiy ahamiyatga ega axborot-texnologik jihatdan o'qitish (tayyorlash) uchun umumjahon miqyosida tarmoqdagi (WWW) ishlarning quyidagi asosiy yo'nalishlari va natijalari qiziqarli bo'lishi mumkin: [10]

• U yoki boshqa (mayyan) mavzu bo'yicha bilim olish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish.

- Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish davomida kerakli ma'lumotlar, aloqalarni (kontaktlarni) qidirish va olish. Internet global kompyuter tarmog'ida loyiha faoliyati natijalari taqdimoti, binobarin, u bo'yicha fikrlar, tavsiyalar, istaklar, buyurtmalar qabul qilish.

- O'z faoliyati natijalarini ko'plab odamlarga tanishtirish orqali amalga oshira olish imkoniyati. Shu bilan birga, muayyan marketing ishlari, keng ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va reklama tadbirlari (kompaniyalari) o'kazish zarur.

- Axborot uzatish va qo'llanilgan yangi texnologiyalardan haqida xalqaro tajriba bilan tanishishda axborot texnologiyalari madaniyati elementlarini shakllantirish.

- talabalarning kelajakdagi kasbini puxta o'rganishi uchun onlayn ma'lumotlarni qidirish va olish.

Muhokama. Internet tarmog'idan foydalanish xizmatini ko'rsatadigan tijorat Internet to'garaklaridan farqli o'laroq, biz tadqiq qilayotgan hodisa ijtimoiylashuv jarayonlarini pedagogik boshqarish va talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Tijorat Internet to'garaklari ta'lim tashkilotlari bo'lmay, aksar hollarda tarmoqqa ulangan bir nechta shaxsiy kompyuterlari bo'lgan kichik xonalardan iborat bo'ladi va bunday to'garaklarning egalari foydalanuvchilar qanday

axborot uzatishi va qabul qilishi bilan qiziqmaydilar. Bunday joylarda dasturiy mahsulotlardan foydalanishga o'rgatish amalga oshirilmaydi. Ko'p hollarda bu yerda tob ma'nodagi "to'garakning" o'zi ham yo'q, chunki foydalanuvchilarning tarkibi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ahyon-ahyonda kompyuter texnologiyalari va Internet resurslariga qiziqish asosida ixtiyoriy ravishda (o'z-o'zidan) u yoki boshqa darajada barqaror jamoalar shakllanadi [5].

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha to'garaklar, birinchi navbatda, asosiy faoliyat turi predmetidan farq qiladi. Eng ko'p holatlarda, bu turli xil ijod turlari ("She'riyat ixlosmandlari to'garagi", "Yosh aktyorlar to'garagi", "Havaskor qo'shiqlar to'garagi"), muloqot ("Yuqori sinflar o'quvchilari to'garagi"), har qanday ilmiy mavzuni o'rganish kabi faoliyat turlari kuzatiladi. Internet-to'garagi uchun esa bu axborot texnologiyalarini va shaxsiy kompyuter uchun dasturiy mahsulotlarni o'zlashtirishdan iborat. Ish, tadbirlarning ayrim shakllari, bir qarashda, turli uyushmalarda, ayniqsa, jamoani shakllantirish borasida bir xil bo'lishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas. Biroq, bizning holatimizda, axborot o'zaro faoliyatida urg'ularni to'g'ri qo'yish va ta'lim dasturining mazmuni tubdan o'ziga xosdir.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): ped. fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent: 2006. 49-b.

2. Abduqodirov A.A. Bo'lajak o'qituvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligi. // "Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TDPU, 2015.

3. Ахмедов А.М. Рақамли педагогик мухитда талабаларнинг ахборот компетентлигини ривожлантириш: ped.fanl.bo'y.fals.dokt. avtoreferati. – Toshkent: 2023. 64-b.

4. Ro'ziqulova N.Sh., Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish jarayonini zarur bo'lgan axborotlar bilan ta'minlash. // "Zamonavy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollari" xalqaro ilmiy konferensiya to'plami. – Toshkent: 2018. 125-128-b.

5. Valixanova N.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish. // "Zamonaviy ta'lim" 2020, 6 (91). 50-56-b.

6. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику. Учебное пособие для студентов. – Москва: Институт практической психологии, 1997.

7. Оленев С.М. Информационная культура на рубеже тысячелетий: преемственность и новации. // Информационная культура личности: прошлое, настоящее, будущее: Тез. докл. Междунар. науч. конф., Краснодар -Новороссийск, 11-14 сентябрь, 1996. – Краснодар: 1996. – С. 52-53.

8. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – Москва: «Academia», 1999.

9. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish: ped.fan. dok.diss. ... – Toshkent: 2022. 245-b.

10. Sultanova O'N. Basad on students' competency – based approach to physics solve experimental and graphical problems. // International interdisciplinary research. In volume 9, May, 2021. – P. 90-98.

11. Sulstonova O'N. The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach" Vol 12, no 1, Jan-Feb.: 2020. 52-57-б.

12. Sultanova O'N. "Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training. Monograph. – mahipublication-India, 2025

REZYUME. Maqolada talabalarda axborot madaniyati mazmuni va asosiy maqsadi axborotlashgan jamiyatda talabalarning shaxsiyatining ijobiy tomonga rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat bo'lgan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun talabalar uchun zaruriy, maxsus tanlab olingan va davlat tomonidan tan olingan axborot kommunikatsion texnologiya vositalari bilan ishlash kompetensiyalari tizimi sifatida izohlanishi ishlab chiqilgan. Suning bilan birgalikda maktab o'quvchilari uchun ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda to'garaklar tashkil etish metodikalari yoritilgan. Kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalariga qiziquvchi talabalarining oliy ta'lim negizida amal qiladigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan (shakllantirilgan) birlashmasi bo'lib, uning asosida Internetga kirish imkoniyati bilan axborot faoliyati yotadi va shu asosida talabalarda axborot madaniyati shakllanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются содержание и основная цель информационной культуры студентов, создание условий для позитивного развития личности студентов в информационном обществе, эффективного осуществления профессиональной деятельности, что необходимо студентам со специально подобранными и признанными государством средствами информационно-коммуникационных технологий. Разработано обоснование качества системы трудовых компетенций. Совместно с компанией Suning обоснована методика организации кружков для школьников с учетом их интересов. Клуб компьютерных и информационных технологий – это организационно оформленное (сформированное) объединение студентов, интересующихся компьютерными технологиями и информационными технологиями, действующее на базе высшего образования, в основе которого лежит информационная деятельность с доступом к сети Интернет.

SUMMARY. This article describes the content and main goal of information culture in students as a system of competencies for working with information and communication technologies, which are necessary for students to effectively implement professional activities, the main purpose of which is to create conditions for the positive development of students' personalities in an information society. published. Together with Suning, the methodology for organizing circles for schoolchildren, taking into account their interests, is explained. A computer and information technology club is an organizationally formalized (formed) association of students interested in computer technologies and information technologies operating on the basis of higher education, which mainly carries out information activities with access to the Internet.

ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ЕЁ РОЛЬ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

И.Б.Аманкличев – ассистент преподаватель

Нукуский государственный педагогический институт имени Ажисияза

Таянч сўзлар: табиий-илмий саводхонлик, табиий фанлар, илмий тушунчалар, экспериментлар ўтказиш, бўлажак бошланғич синф ўқувчилари.

Ключевые слова: естественно-научная грамотность, естественные науки, научные понятия, проведение экспериментов, будущие учителя начальных классов.

Key words: scientific literacy, natural sciences, scientific concepts, conducting experiments, future primary school teachers.

Введение. Как известно, сегодня требуется не только вооружать учащихся базой знаний, но и формировать у них ключевые и предметные компетенции, обеспечивающие успешную адаптацию личности в условиях стремительно меняющегося мира. В связи с этим особое значение приобретает профессиональная подготовка будущих учителей, поскольку именно профессионализм и компетентность педагогов являются важнейшими факторами повышения качества образования.

В данном контексте указ Узбекистана Президента № ПФ-76 от 5 мая 2025 года «О дополнительных мерах по обеспечению качества образования и совершенствованию системы оказания образовательных услуг», в котором ставятся задачи по определению механизмов внешней оценки деятельности образовательных и научно-исследовательских учреждений и повышению качества предоставляемых образовательных услуг, направлен непосредственно на совершенствование подготовки кадров [1].

Основная часть. Особенно значима профессиональная компетентность и педагогическое мастерство будущих учителей начальных классов, поскольку именно они создают основу для всестороннего развития учащихся. Современные требования XXI века и существующие проблемы в сфере образования требуют пересмотра приоритетов начального образования. Сегодняшний ученик должен не только овладеть предметными знаниями, но и обладать навыками рассуждения, анализа информации, формулирования выводов и принятия обоснованных решений. Поэтому формирование естественнонаучной грамотности у учащихся начальных классов должно стать важнейшим направлением образовательного процесса.

Исследования по развитию естественнонаучной грамотности активно ведутся многими учёными. Так,

Т.Г.Ведерникова и Т.Г.Емелева анализировали вопросы формирования естественнонаучной грамотности у младших школьников на основе использования информационно-коммуникационных технологий [3:114-119]. Л.А.Сафронова в своих работах подчёркивает важность естественнонаучных дисциплин в развитии исследовательской деятельности школьников [7]. О.А.Ивашедкина предложила совершенствовать содержание учебного курса «Естественные науки» на основе учебной, проектной и исследовательской деятельности [4]. Л.И.Бурова разработала научно-теоретические основы формирования у младших школьников естественнонаучной картины мира [2]. А.И.Савенков уделяет внимание развитию у детей навыков постановки вопросов, формулирования гипотез, определения понятий, описания, наблюдения, проведения экспериментов, рассуждения и выведения выводов как основ исследовательской деятельности.

Анализ содержания указанных научных работ позволяет сделать вывод, что естественнонаучная грамотность включает в себя: понимание научных идей и процессов, интерпретацию природных явлений, применение знаний на практике, а также умение находить и анализировать информацию, оценивать надёжность и значимость полученных данных, аргументировать собственную позицию и делать выводы. Таким образом, естественнонаучная грамотность представляет собой интегративное понятие, охватывающее области естественных наук:

знание научных понятий (например, вода, воздух, свет, живые организмы и особенности их среды обитания и т.д.);

понимание научных методов проведения различных экспериментов (например, умение наблюдать процессы, выдвигать собственные гипотезы, проводить простейшие опыты, анализировать данные и т.п.);

овладение навыком применения теоретических знаний на практике для объяснения явлений повседневной жизни (например, почему зимой на окнах образуется иней, как работают водяные фильтры и др.);

формирование отношения к науке, включая уважение к труду учёных, осознание роли науки в сохранении окружающей среды и улучшении качества жизни, а также развитие системы знаний, умений и навыков, соответствующих возрастным и индивидуальным особенностям каждого учащегося.

Естественные науки занимают важное место в повышении уровня естественнонаучной грамотности учащихся общеобразовательных школ. В ряде развитых стран, в том числе на уровне начального образования, внедрён курс SCIENCE (естественные науки), направленный на развитие научной грамотности.

Учитывая мировой опыт и современные требования, в общеобразовательных школах Республики Узбекистан с 2021-2022 учебного года вместо ранее преподаваемых в 1-2 классах предметов «Окружающий мир» и в 3-4 классах предмета «Естествознание» был введён объединённый предмет «Естественные науки» (SCIENCE). Таким образом, предмет SCIENCE включает в себя:

в 1-2 классах – «Окружающий мир»,

в 3-4 классах – «Естествознание»,

в 5-6 классах – «Биология», «Физика», «География».

Целью данного подхода является формирование у учащихся целостного представления об окружающем мире, развитие научного мировоззрения и исследовательских навыков. Это также способствует развитию у младших школьников компетенций, предусмотренных моделью 4К (креативность, коммуникация, коллаборация, критическое мышление), а также компетенций, соответствующих международным программам оценки качества образования PISA и TIMSS.

Преподавание естественных наук в начальных классах создаёт возможности для развития у учащихся следующих умений:

наблюдать сезонные изменения в природе (например, изменение окраски листьев осенью);

описывать признаки живых и неживых объектов;

проводить простейшие эксперименты и т.д.

В данном контексте, безусловно, первостепенное значение имеет уровень естественнонаучной грамотности учащихся. Это, в свою очередь, связано с тем, насколько эффективно организованы учебные и внеучебные процессы по естественным наукам. Эффективность этих процессов требует от будущих учителей начальных классов профессиональной подготовки к их реализации.

В рамках направления бакалавриата 60110500 – «Начальное образование» высших образовательных учреждений педагогической направленности предусмотрено изучение дисциплины «Теория и методика преподавания естественных наук». Эта дисциплина нацелена на подготовку будущих учителей начальных классов к эффективной организации учебных и внеурочных занятий по естественным наукам в начальных классах общеобразовательных школ.

При изучении данной дисциплины будущим учителям начальных классов рекомендуется уделить особое внимание следующим аспектам:

I. Естественные науки являются, прежде всего, дисциплиной, требующей интегративного подхода в образовательном процессе. То есть для объяснения одной темы учителю необходимо знать, понимать и применять достижения сразу нескольких наук. Например, в учебнике «Естественные науки» для 4 класса под авторством Е.В.Маликовой [5:4-7] содержится тема «Я – исследователь», раскрывающая понятие исследовательской деятельности: кто такие исследователи, как проводятся исследования, как организуется процесс сбора данных и формулируются выводы. Для учащихся предусмотрены такие задания, как:

1. Какими качествами должен обладать человек, чтобы стать исследователем?

2. Чем вы интересуетесь? Что хотели бы узнать? На основе ваших ответов сформулируйте тему для исследования. Что, по вашему мнению, необходимо знать для его проведения?

3. Где можно найти необходимые сведения для проведения исследования?

Работая с подобными учебными материалами, будущий учитель начальных классов должен, во-первых, обладать знаниями фундаментальных основ наук, связанных с человеческими качествами: философии, педагогики, психологии, духовности, а также научной методологии. Во-вторых, он должен владеть навыками применения соответствующих форм обучения, методов, средств и технологий с учётом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся.

В-третьих, период начального школьного возраста является эмоционально насыщенным и важным для формирования основ мировоззрения ребёнка. Именно в этом возрасте формируются первоначальные представления о природе, обществе и своём месте в них. В это время дети проявляют активный познавательный интерес: они наблюдают, задают вопросы, стремятся к объяснению явлений. Эти познавательные стремления необходимо правильно направлять и развивать.

Таких примеров можно привести множество. Например, на уроке во 2 классе учащимся было предложено исследовать, как растёт растение в темноте и на свету. Ученики вносили данные в таблицу и делали вывод: «для роста растения необходим свет». Этот опыт иллюстрирует элементы научного мышления, соответствующего начальному этапу естественно-научной грамотности.

II. Естественные науки — это предмет, который требует комплексного подхода в образовательном процессе. Под комплексным подходом к повышению естественно-научной грамотности учащихся подразумеваются два аспекта.

Во-первых, это пересмотр содержания учебных программ образовательных направлений с целью их максимальной адаптации к школьной практике, подготовка будущих учителей к использованию исследовательских методов обучения и другие мероприятия, направленные на повышение качества преподавания.

Во-вторых, при преподавании естественных наук в начальных классах предполагается подача знаний в комплексе — от простого к сложному. Например, при

изучении темы «Растения» в учебнике [5:8-7] рассматриваются вопросы: многообразие растений, зачем растениям нужны листья, растения и окружающая среда, группы растений, влияние растений на окружающую среду, влияние человека на жизнь растений, Красная книга растений. В рамках этих тем учащиеся получают базовые знания, развивают навыки и умения, а также повышают уровень естественно-научной грамотности. Такой подход требует от учителя комплексного понимания биологии, экологии, основ экологического воспитания, ответственности за окружающую среду, задач устойчивого развития и культуры научного мышления.

III. При организации уроков естественных наук в начальных классах и составлении заданий следует учитывать национально-региональные особенности местности, в которой проживают учащиеся. В этом отношении школьные учебники обогащены материалами, отражающими местный колорит. Например, в теме «Какими бывают сосуды?» приводятся такие предметы, как пиала, чайник, поднос, ступка, пестик, кувшин, ляган, изделия гончарного искусства. Или в теме «Растения» рассматриваются папоротники, мхи, хвойные и цветковые растения с иллюстрациями, что сопровождается заданиями, соответствующими возрасту и уровню знаний учащихся. Это, несомненно, положительный аспект. В дополнение к этому будущим учителям начальных классов необходимо быть готовыми к использованию цифровых технологий и

электронных анимационных форматов для представления учебной информации — что является одним из актуальных требований современности.

Обсуждение и результаты. Современный этап развития общества характеризуется ускорением информационных потоков, цифровизацией, глобализацией и интеграцией. В этих условиях возрастает необходимость внедрения в образовательный процесс новых технологий, в частности технологий искусственного интеллекта. Современные исследования подтверждают тенденцию расширения сфер применения искусственного интеллекта в различных отраслях, включая образование. Однако остаётся актуальной задача научно-методологического обоснования системного и целенаправленного внедрения искусственного интеллекта в учебный процесс. Анализ международного опыта показывает, что использование искусственного интеллекта требует как совершенствования нормативно-правовой базы, так и научного осмысления этических аспектов его применения в образовании.

Заключение. естественные науки играют ключевую роль в формировании естественно-научной грамотности учащихся. Это требует качественной подготовки будущих учителей начальных классов к преподаванию данных дисциплин. При этом необходимо применять интегративный и комплексный подход, учитывать национально-культурные и региональные особенности образовательной среды при планировании уроков и составлении заданий.

Литература

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 5-майдаги «Таълим сифатини таъминлаш ва таълим хизматлари кўрсатиш тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча сора-тадбирлари туғрисида»ги ПФ-76-сон Фармони.
2. Бурова Л.И. Теоретико-педагогические основы формирования у младших школьников естественнонаучной картины мира. Автореф...дисс...докт.пед.н. – Москва: 1998
3. Ведерникова Т.Г., Емелева Т.Г. К вопросу об эффективности формирования естественнонаучных знаний школьников начальных классов при использовании информационных технологий обучения. // Вестник Башкирского государственного педагогического университета им. М.Акмиллы. 2022. – С.114- 119.
4. Ивашедкина О.А. Методика-проектно-исследовательской деятельности школьников в образовательной практике учителя естествознания. Автореф...дисс...канд.пед.н. – Санкт-Петербург: 2016.
5. Маликова И.В. Табиий фанлар. Умумий ўрта таълим мактабларининг 4- синфи учун дарслик, I қисм. /И.В.Маликова, С.В.Костяненко. – Тошкент: «Novda Edutainment», 2023.
6. Савенков А.И. Психологические основы исследовательского обучения школьников. // Школьная физика. Для учителей и учеников. Фізика: праблемы выкладання. 2007. № 3. – С. 14-24.
7. Сафронова Л.А. Педагогические условия активизации исследовательской деятельности учащихся классов естественнонаучного профиля общеобразовательной школы. Автореф...дисс...канд.пед.н. – Чебоксары: 2014.

РЕЗЮМЕ. Мақолада «табиий-илмий саводхонлик» тушунчасининг мазмуни ва моҳияти очиб берилган бўлиб, у кўп киррали жараён сифатида бошланғич синф ўқувчиларида табиий-илмий саводхонликни ривожлантиришни аҳамияти илмий-назарий жихатдан очиб берилган. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларининг табиий-илмий саводхонлигини оширишда SCIENCE, яъни табиий фанларнинг тутган ўрни илмий асосланган ҳолда бу фанни самарали ўқитишда бошланғич синф ўқувчиларини касбий таййёрлашга доир таклиф доир таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрываются содержание и сущностные характеристики понятия «естественно-научная грамотность», рассматриваемого как многогранный процесс. Научно и теоретически обоснована важность развития естественно-научной грамотности у учащихся начальной школы. Определена роль предмета Science (естественные науки) в повышении уровня естественно-научной грамотности школьников, разработаны предложения и рекомендации по профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов к эффективному преподаванию данного курса.

SUMMARY. This article explores the content and essence of the concept of scientific literacy, presenting it as a multifaceted process. It provides a theoretical and scientific justification for the importance of developing scientific literacy among primary school students. The role of SCIENCE natural sciences, in enhancing scientific literacy among general secondary school students is highlighted. The article also proposes recommendations for the professional preparation of future primary school teachers to teach natural sciences effectively.

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA
DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISH KOMPONENTLARI**

D.B. Annakulova – *stajyor o'qituvchi*

Guliston davlat universiteti

Tayanch so'zlar: doston, baxshi, komponent, kognitiv, ijodiy, motivatsion, mahalliy uslub, musiqa, jirov ijrochiligi.

Ключевые слова: эпос, бахши, компонент, когнитивный, творческий, мотивационный, локальный стиль, музыка, жировское исполнение.

Key words: epic, bakhshi, component, cognitive, creative, motivational, local style, music, jirov performance.

Kirish. Shuni a'lohida ta'kidlash joizki, o'zbek xalq dostonidagi qahramonlik va vatan himoyachisi hisoblangan obrazlar talabalarga yaqin va tushunarli bo'lishi uchun uni baxshilar tomonidan do'pbira ohanglarga solinib aytilishi, o'ziga xos ta'sirchan kuchga ega bo'ladi. Asarlarning mavzulariga bo'lgan qiziqish talabalarning doston qiyinchiliklarini yengishga va doston ma'nosini o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu mulohazalarni qo'shimcha sifatida aytilish joizki, ayrim hududlar (Farg'ona-Toshkent, Sirdaryo, Buxoro)da baxshi-doston ijrochiligiga qiziqish boshqa xududlarga nisbatan bir oz talab kamdir. Biz doston ijrochiligini o'qitishda ushbu jihatlarni ham e'tiborga olishimiz maqsadga muvofiq hisolanadi [1].

Mashg'ulot jarayonida talabalar xalq dostonlarining asosiy xususiyatlarini va doston an'alarini o'rganib, aytuvchilardan yozilgan terma va dostonlarni tingladilar, doston asarlariga illyustratsiya bo'lgan xalq dekorativ-amaliy san'ati asarlarini ko'rib chiqdik. Mashg'ulot jarayonida kuzatishlar, shuningdek, talabalar va ularning ota-onalari bilan keyinchalik olib borilgan suhbatlar dars materialining katta qiziqishini uyg'otganini ko'rsatdi. Talabalarni doston ijrochiligi bo'yicha o'zlari tomonidan muloqot uyushtirildi va ularning faol ishtiroki ta'minlandi. Qodir baxshi, Fozil Yo'ldosh baxshi, Shoberdi baxshi, Ismoilxon baxshi va boshqalar ijrosidagi dostonlarning video yozuvidagi namunalarni diqqat bilan tingladilar va murakkab she'riy matnni mustaqil tushunishga harakat qildilar [3].

Adabiyotlar analizi va metodolgiya. Musiqachilikdagi doston va termalarning xalq og'zaki ijodiyotidagi tutgan o'rni bo'yicha O.A.Ibrohimov «O'zbek xalq musiqa ijodi» ilmiy asarida metodik tavsiyalar berib o'tgan [1]. Bundan tashqari o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bo'yicha F.M.Karomatov [2], Q.B.Panjiyev [3] folklor va musiqa uyg'unlashuvi, uning metodikasi haqida bir qancha mehnatlaridagi fikrlardan foydalanildi.

Asosiy bo'lim. Shunday qilib, kuzatish jarayonida olingan pedagogik asoslarning umumlashtirilishi, o'zbek xalq dostonlarining oliy ta'lim tashkilotlari musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining o'zlashtirishlari uchun mavjud material ekanligini anglatadi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi professor-o'qituvchilarga va talabalar uchun ularning kasbiy pedagogik faoliyatlari yoki pedagogik amaliyot davomida musiqiy folklor hamda baxshi-shoirilar tomonidan ijro etiladigan o'zbek xalq dostonlariga murojaat qilishlari haqida turli xil metodik tavsiyalar berildi, bu esa ularning xalq dostoni sohasidagi bilim va ko'nikmalarini (shu jumladan, kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini) aniqlash, ushbu materialga nisbatan emotsional qiziqish darajasini belgilash va ularga ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida amalga oshirildi [4].

Ushbu qiyinchiliklarni tadqiq etayotgan tadqiqotimizning qiziqarli jihati nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali, doston ijrochiligi asarlar bilan samarali ishlashga to'sqinlik qiladigan eng keng tarqalgan sabablarga aniqlik kiritildi:

o'qituvchilar va talabalar o'rtasida xalq dostoniga nisbatan shaxsiy qiziqishning yo'qligi;

o'zbek xalq dostoni sohasida asosiy bilimlarning yetishmasligi;

o'zbek xalq dostonlari ustida ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar [shu jumladan ijodiy ko'nikmalar] ning yo'qligi.

Kuzatish jarayonida olingan pedagogik izlanishlarni umumlashtirish natijasida, ko'pchilik bo'lajak musiqa o'qituvchilari va an'anaviy metodika bo'yicha o'qiyotgan talabalar doston ijrochiligi asarlar ustida ishlash uchun zarur bo'lgan bilim, (shu jumladan ijodiy ko'nikmalar) ga ega emasligini angladik. Bundan tashqari, musiqa mashg'ulotlarida doston ijrochiligi asarlar ustida samarali ishlashga xalq dostoniga nisbatan emotsional qiziqishning past darajasi to'sqinlik qiladi. Ushbu xulosalar keyingi tajriba ishlarida e'tiborga olindi, bu jarayonda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimida dostonni o'zlashtirishga mo'ljallangan pedagogik model ishlab chiqildi va tajriba sifatida kiritildi [3].

Ushbu davrda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish;

doston ijrochiligini o'zlashtirish bo'yicha mavjud metodikalarni tahlil qilish;

talabalarning doston ijrochiligini o'zlashtirish jarayonini kuzatish;

o'zbek xalq dostonini baxshilar musiqa ta'limi mazmunining bir qismi sifatida o'zlashtirish jarayonini eng samarali tashkil etishga imkon beruvchi metodikani ishlab chiqish;

talabalarga xalq dostoni haqidagi zarur bilimlarni tanlash va pedagogik moslashtirish;

xalq doston an'alariga oid ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradigan pedagogik usullarni izlash;

doston an'anasining xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yorqin doston ijrochiligi janrlarni tanlash;

bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tayyorlash jarayonida doston ijrochiligini o'zlashtirish metodikasini kiritish;

ushbu metodika bo'yicha talabalarning doston ijrochiligini o'zlashtirish jarayonini kuzatish;

talabalarning doston ijrochiligini o'zlashtirish jarayonini umumlashtirish maqsadida o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

Mazkur vazifa ta'lim mazmunining to'rt asosiy komponentdan kelib chiqib hal qilindi: kognitiv, operatsion, ijodiy va motivatsion.

Kognitiv komponentni o'zlashtirish jarayonida o'zbek xalq dostonlarining bir butun sifatida asosiy belgilarini va xususiyatlarini, shuningdek, mahalliy aholining urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlarining asosiy janrlarini bilishdir. Operatsion komponentni o'zlashtirishda talabalar tomonidan doston an'analarda bir qator aqliy va amaliy ko'nikmalarni bilishdir. Ijodiy komponentni o'zlashtirishda esa mavjud bilim va ko'nikmalarni xalq dostoni sohasida ijodiy o'zgartirish va foydalanishga tayyorlikdir. Motivatsion komponentni o'zlashtirish jarayonida esa talabalar tomonidan o'zbek xalq dostonlariga nisbatan shaxsiy qiziqishning mavjudligi hisoblandi [5].

Ushbu komponentlar asosida talabalarning doston ijrochiligini o'zlashtirishga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun maxsus ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Natijada, ushbu ko'rsatkichlar quyidagi komponentlar bo'yicha belgilandi:

kognitiv komponentga muvofiq o'zbek xalq dostonlarining asosiy belgilarini va xususiyatlarini bilish, uning asosiy janrlarini to'liq bilish; o'zbek xalq terma va doston ijrochilari (baxshilar) va yig'uvchilari (olimlar, tadqiqotchilar) haqida bilimga ega bo'lish; xalq dostonlarini, ularning turlari va variant (invariantligi)ni bilish; talabalarning o'zlashtirishlarini aniqlash va qo'shimcha materiallarni tanishishlariga tavsiyalar berish;

operatsion komponentga muvofiq o'zbek xalq doston ijrochiligi asarlarini to'plash, o'qish, eshitish, notalashtirish va notalardan tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish; o'zbek xalq dostoni namunalari, jumladan, og'zaki eshitish yo'li bilan o'rganilganlarini ijro etish ko'nikmasiga ega bo'lish; doston kuylashni dekodlash ko'nikmasiga ega bo'lish;

ijodiy komponentga muvofiq muammo-qidiruv faoliyati jarayonida doston ijrochiligi asarining asosiy belgilarini mustaqil izlash ko'nikmasiga ega bo'lish; o'zbek xalq dostonlarining noma'lum namunalari tahlil qilish [janrini belgilashni o'z ichiga olgan holda]; baxshi ijrochiligining qadimiy aytim yo'llarining ichki va tashqi ovoz ijrochiligini aniqlash, doston matnini yozish yoki mavjud doston matniga mos keladigan aytim yo'llarini tanlash ko'nikmasiga ega bo'lish; o'zbek xalq dostoni namunalari qidirish, musiqiy folklor ekspeditsiyalar uyushtirish, yozish va dekodlash ko'nikmasiga ega bo'lish;

Motivatsion komponentga muvofiq o'zbek xalq doston ijrochiligiga nisbatan emotsional qiziqishning mavjudligi; baxshilari tomonidan o'zbek xalq terma va doston ijrochiligi asarlarni yozma ravishda qabul qilish jarayonida ijobiy emotsional reaksiyalarning mavjudligi; Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpoq baxshi-jirov an'anaviy doston ijrochiligiga oid asarlar uchun shaxsiy xususiyatlarining mavjudligi; xalq dostoni sohasidagi shaxsiy tajribani faollashtirishga tayyorlik, qo'ng'iroq

eling yoki mahalliy doston an'analari haqida ma'lumotga ega bo'lish va tushunchalar berishga tayyorlik; doston ijrochiligi madaniyati fenomenlariga nisbatan emotsional qiziqishning mavjudligi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini metodik takomillashtirishda o'zbek xalq terma va doston ijrochiligining o'ziga xos an'alaridan foydalangan holda o'rganilayotgan masalaga nisbatan musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga taalluqlidir. Musiqa ta'limi yo'nalishidagi o'quv rejaga muvofiq "O'zbek xalq musiqa ijodi", "Folklor san'ati" fanlarining mavzular tarkibiga kiritilgan doston ijrochiligi mavzularini o'qitish – bu umuiy o'rta ta'lim matabi davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari asosida va qolaversa, musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'qitish dasturining metodik ko'rsatmalari asosida o'rganish amalga oshirildi [6].

Bundan tashqari, musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi-shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tashkil etish jarayonida talabalar shaxsiy tushunchalariga, ularning kasbiy ijrochilik tajribalariga tayangan holda, musiqa kursida qo'llaniladigan rag'batlantiruvchi metodlar orasida, mahalliy aholi orasida baxshi-shoir-jirov ijrochiligidagi terma va doston aytimlar hodisalarini tahlil qilish usuli sifatida [4] juda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarning doston an'alar sohasidagi, xususan, baxshi-jirovlar ijrosidagi terma va doston ijrochiligi tajribalarini faollashtirishga ham katta ahamiyat berildi.

Педагогические идеи великих мыслителей Востока внесли значительный вклад в мировую педагогику. Однако на современном Востоке педагогическое наследие ученых-мыслителей Средневековья до приобретения среднеазиатскими республиками независимости было невостребованным. И только в последние годы оживился интерес к этой сокровищнице педагогической мысли. Педагогические воззрения мыслителей представляют собой демократическое направление в педагогической мысли Средневековья: они оказывали и по настоящее время оказывают огромное влияние на представления о человеке на формирование и совершенствование трудового воспитания и обучения подрастающего поколения. Их педагогические идеи по сей день - питательная среда для формирования представлений не только о человеке и его воспитании, но и о гуманизме, о формировании всесторонне развитой личности, о требованиях к учащимся и учителю [10].

Изучая педагогические воззрения аль-Хорезми, аль-Фароби, аль-Беруни, ибн Сина, Омара Хайама, Саади, Абдурахмана Джами, Алишера Навои, Захириддина Бабура, Юсуфа Баласагунского, Махмудхаджи Бехбуди, Абдуллы Авлони, Махмуда Кашгарского, Ахмада Югнаки и других приходим к выводу, что великие ученые-педагоги, философствуя о человеке, личности, воспитании и обучении подрастающего поколения, большое значение придавали труду, знаниям, уму, искусству слова, высоким нравственным качествам. Они хотели видеть человека всесторонне развитым, умелым, образованным [10].

Великие личности средневекового Востока оставили на века свои незыблемые педагогические руководства, педагогические суждения и принципы, методы и способы обучения и воспитания, требования к учащимся и учителю. Все они хотели видеть человека всесторонне развитым и образованным. В их мировоззрении – огромная духовная сила, жизнеспособность и живучесть концепций, преемственность принципов, масштаб педагогического мышления, высокий гуманизм, патриотизм, правдивость и миролюбие [10].

Для решения проблемы трудового воспитания подростков общеобразовательной школы актуальными признаны все идеи, принципы, методы и способы, предлагаемые великими мыслителями Востока, ибо они представляют неоспоримый педагогический потенциал и образовательную ценность в современном учебно-воспитательном процессе. Это, прежде всего, следующие положения энциклопедистов Средневековья: целостное и всестороннее развитие личности учащегося; активация познавательной деятельности учащихся, развитие их логического мышления; научность обучения, наглядность и зрительность; глубокое осмысление знаний, их самостоятельное приобретение; активное участие обучаемого в самообразовании и самовоспитании.

Методы. Основные тезисы реализации педагогических идей мыслителей Востока в общеобразовательной школе: ориентир на философско-педагогическую концепцию мыслителей Востока о всестороннем

гармоничном развитии личности, ее совершенствовании до уровня полноценной в личностном, профессиональном и социально-потребностном плане; курс на гуманизацию в целевой, содержательной и процессуальной направленности учебно-воспитательного процесса; творческий подход к педагогической деятельности; формирование у учащихся этической культуры (педагогической этики), нравственных, духовных интересов и трудовых запросов; активное приобретение знаний, интеллектуальное развитие (особенно педагогического мышления); индивидуальный подход к развитию личности подростка; поиск новых методов, приемов, способов и средств целостного развития личности учащегося [10].

Результаты. Общеизвестно, что одним из важных принципов, служащих ориентиром повышения качества образования, является обращение к современным традициям трудового воспитания учащихся, в частности, к педагогическому наследию последних веков.

Очень важно уделять особое внимание традициям, народным традициям в прошлом и связь с настоящим. Под традиционностью (от лат. *traditio* – передача, рассказы) принято понимать обычаи, порядки, правила поведения, переводы, исторически сложившиеся и передаваемые из поколения в поколение, иными словами традиция – это порядок, который издавна привычный, такой, сохранившийся от древности и существует благодаря принятым ценностям. Традиционность – явление устойчивое, оно дает смысл многим общественным действиям, сохраняет устойчивость системы и предоставляет привычности нашим взглядам. В системе образования традиционно имеется устойчивый и значимый компонент культуры, который передается с помощью механизма преемственности.

Общепризнано, что традиции – это явление духовной жизни общества, важнейший элемент общественного и социального сознания, в них сосредоточена мудрость поколений. В толковом словаре С.И.Ожегова читаем: «Традиция – то, что перешло от одного поколения к другому, что унаследовано от предшествующих поколений» [11:807]. В словаре под редакцией С.Я.Левита традиции определяются как «социальное и культурное наследие, передающееся от поколения к поколению и воспроизводящееся в определенных обществах и социальных группах в течение длительного времени. Традиции включают в себя объекты социокультурного наследия (материальные и духовные ценности); процессы социокультурного наследия и способы этого наследования» [12:480].

По мнению М.А.Некрасовой, основа традиции – «правильное отношение к национальному наследию. Наследие – все искусство прошлого. В традицию переходит все то, что имеет непреходящую ценность. Это опыт народа, то, что способно по-новому жить в современности» [13:36]. Традиция – понятие достаточно сложное. Традиции пронизывают все явления жизни, быта, производства, экономики, культуры, искусства, в каждой сфере обладая своей спецификой в содержании и проявлении. Из всех традиций, передаваемых из поколения в поколение, важнейшими являются педагогические, в силу того, что самая главная функция человека, народа есть передача опыта жизни подрастающему поколению, опыта воспитания и обучения. Сутью образования является передача младшему поколению ценностей культуры. «...Через психологический механизм

люди наследуют прошлые верования, знания, символы, а также нормы, ценности, правила, которые сохраняются, интерпретируются, используются и передаются в семье, общине, в других коллективных формах жизни. Все то, что доходило до нас из прошлого, что передается во взаимосвязанном нарастающем историческом процессе, составляет наследие прошлого» [3:63].

Национальная культура, народные традиции являются важным педагогическим средством, использование которого в педагогической деятельности делает процесс образования и воспитания более целенаправленным. Образование должно способствовать тому, чтобы, с одной стороны, с другой воспитание четко осознавали свои корни и тем самым мог определить то место, которое он занимает в мире, его окружающем, а с другой, привить ему уважение к культурам других народов. Воспитание уважения к своей культуре необходимо начинать с детства.

Искусство родного края – это тот дом, из которого ребенок отправляется по дорогам мирового искусства, поэтому свое родное искусство должно быть им остро прочувствовано. Не поняв родного искусства, человек вряд ли способен чувствовать культуру другого народа, понимать психологию человека другой национальности. Как известно, культура каждого народа развивается по единым для всего человечества законам. А национальное многообразие материальной и духовной культуры, во многом зависят от конкретных условий, в которых формировался и развивался народ, его этноэстетики, условий развития культуры, быта и хозяйства, религии и мировоззрения. В каждой народной культуре сосредоточен национально-своеобразный язык декоративно-прикладного творчества, в котором закодированы образы-символы наших предков, никогда не исчезающие из народной памяти. Например, неудачи, как метко замечают туркмены, «или от угля, или от железа» – могут быть только у плохого кузнеца. О качестве труда надо заботиться с самого начала, иначе весь труд пойдет насмарку: «Если положить криво первый кирпич, то хоть до созвездия Плеяд выводи стену – она будет кривая». Труд не бывает легким, поэтому народ советует: «Не учишь нежностям, учишь трудностям». Народ не одобряет тех, кто отлынивает от труда, поэтому афоризм гласит: «Заставь работать стоящих без дела, если даже это твои родители». Трудолюбивому человеку не хватает ни времени, ни рук: «Для работы нужно десять пальцев, а еще бы один – было бы совсем хорошо». У туркмен и горных таджиков не только рука, но и каждый палец имеет рифмованную трудовую характеристику: большой палец – колосья приносит, указательный палец – молоко приносит, средний палец – стреляет, мизинчик – золу убирает [3].

Заключение. Народ ясно представлял себе, что овладение трудовыми навыками требует времени и усилий, поскольку «есть вещи, которые не сделаешь, пока не выучишься, но есть и такие вещи, которые надо сделать, чтобы выучиться». Мастерство приходит постепенно благодаря упорному труду, поэтому «первая корзина ученика не употребляется для хранения пищи». В случае неудачи человек не должен ссылаться на объективные причины.

В заключении нужно отметить, что, переосмысление многих прежних взглядов и традиций приведет к разнообразию и совершенствованию образовательной системы современности.

Литература

1. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года (Приложение N 1 к Указу Президента РУз от 29.04.2019 г. N УП-5712).
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 3.05.2019 г. №ПП-4306 «О мерах по организации непрерывной системы выявления одаренной молодежи и подготовки высококвалифицированных кадров».
3. Кузиев М.А. Педагогические условия организации трудового воспитания школьников на основе прогрессивных идей и положений научной и народной педагогики: На материале общеобразовательных школ Республики Таджикистан: дис. ... канд. пед. наук. – Москва: 2002. –С. 174.
4. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Махкам таржимаси. – Тошкент: «Шарқ», 2001.
5. Ибн Сина. Избранное: Пер. с араб. и тадж./перс. /Сост. и авт. предисл. А.Ирисов; Ред. Б.Пармузин. – Ташкент: «Узбекистан», 1981. –С. 111.
6. Бируни (Беруни) Абу Райхан. Канон Мас'уда /Пер. и примеч. Б.Розенфельда и А.Ахмедова; Отв. ред. С.Х.Сираждинов и Г.П.Матвиевская //Избранные произведения. Т. V, ч. II, кн. VI-XI. – Ташкент: «Фан», 1976.
7. Ибн Сина. Избранное: Пер. с араб. и тадж./перс. /Сост. и авт. предисл. А.Ирисов; Ред. Б.Пармузин. – Ташкент: «Узбекистан», 1981.
8. Шермухамедов С. Очаги древней цивилизации – Тошкент: «Зиё», 1999.
9. Джуринский А.Н. История педагогики: Учеб. пособие для студентов пед.вузов. – Москва: «Владос», 2000.
10. Джураев Р.Х., Атабаев К.У. Изучение передового опыта как показатель творческой деятельности учителя. // docs / 768/ index – 94461-1. html.).
11. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. / РАН; Ин-т русского языка имени В.В.Виноградова; С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова. 4-е изд., доп. – Москва: «Азбуковник», 1999.
12. Культурология. XX век: словарь / Л.В.Скворцов и др.; под ред. С.Я.Левита. – Санкт-Петербург: «Университетская книга», 1997.
13. Некрасова М.А. Народное искусство как часть культуры: теория и практика. – Москва: «Изобразительное искусство», 1983.

РЕЗЮМЕ. Мақолада халқ педагогикасидаги халқ анъаналари, урф-одатлари, катталар ва болалар фольклори, халқ байрамлари, нақл-мақоллари, қўшиқлари, ҳазиллари, чебар сўзлари, ҳар хил мавзулардаги дастонлар ва афсоналар, оиладаги ва жамиятдаги меҳнат муносабатлари халқ педагогик доналингининг болаларни меҳнатга тарбиялашдаги долзарблиги таҳлил қилинади.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется отношение народной педагогической мудрости в народной педагогике к народным традициям, обычаям, фольклору взрослых и детей, народным праздникам, пословицам, песням, шуткам, поговоркам, былинам и легендам на различные темы, трудовым отношениям в семье и обществе сделано.

SUMMARY. The article analyzes the attitude of folk pedagogical wisdom in folk pedagogy to folk traditions, customs, folklore of adults and children, folk holidays, proverbs, songs, jokes, sayings, epics and legends on various topics, labor relations in the family and society.

**INNOVATSION TAFAKKUR VA MUHANDISLIK TA'LIMINING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

S.I.Fatullayeva – *stajyor o'qituvchi*
Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch soʻzlar: innovatsion tafakkur, muhandislik ta'limi, STEAM, CDIO, TRIZ, PBL/PrBL, raqamli tvinn, VR/AR, sun'iy intellekt, kompetensiyalar xaritasi.

Ключевые слова: инновационное мышление, инженерное образование, STEAM, CDIO, TRIZ, PBL/PrBL, цифровой двойник, VR/AR, искусственный интеллект, карта компетенций.

Key words: innovative thinking, engineering education, STEAM, CDIO, TRIZ, PBL/PrBL, digital twin, VR/AR, artificial intelligence, competency mapping.

Kirish. Raqamli transformatsiya jadallashgan hozirgi sharoitda yuqori malakali muhandis kadrlarni tayyorlash jarayoni oddiy bilimlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi; u innovatsion tafakkur, tizimli tahlil, ijodiy muammo yechish va tez o'zgaruvchi muhitda qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishni taqozo etadi. Muhandislik ta'limi mazmuni, shakl va texnologiyalarining yangilanishi bevosita ishlab chiqarishning intellektuallashuvi, texnologik paradigmalarining almashtiruvchi (sanoat 4.0/5.0), STEM/STEAM integratsiyasi, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt vositalarining keng qo'llanishi bilan belgilanmoqda [1]. Shu nuqtayi nazardan, "innovatsion tafakkur" tushunchasi muhandislik ta'limining nazariy-metodologik poydevoriga aylanishi, o'quv jarayonida bilimdan tashqari metabilimlar (o'rganishni o'rganish, refleksiya, dizayn fikrlash) va ijtimoiy-huquqiy mas'uliyatni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar uchta strategik yo'nalishni ajratib ko'rsatadi: (1) kompetensiyaviy yondashuv asosida mazmuni qayta loyihalash; (2) loyiha-ijodiy (project- va problem-based) ta'limni asosiy didaktik platforma sifatida joriy etish; (3) raqamli ekotizimlar, ochiq ta'lim resurslari va virtual/ko'shma laboratoriyalar orqali bilimlarni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish. Biroq mavjud ishlar ko'pincha "innovatsion tafakkur"ni alohida ko'nikma sifatida talqin etib, uning kognitiv (tanqidiy va tizimli fikrlash), affektiv (ijodiy motivatsiya, riskga nisbatan konstruktiv munosabat), metakognitiv (o'z-o'zini baholash va refleksiya), hamda ijtimoiy (hamkorlik va kommunikatsiya) qatlamlarining o'zaro ta'sir mexanizmlarini integral modelda yetarlicha asoslab bermaydi. Shuningdek, metodik yechimlar ko'p hollarda kontekstga – mahalliy ishlab chiqarish ehtiyojlari, mehnat bozori

talablari va milliy ta'lim standartlariga moslashtirilgan diagnostika va baholash vositalari bilan ta'minlanmagan. Maqolaning ilmiy yangiligi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, innovatsion tafakkurning ko'p qatlamli (kognitiv – metakognitiv – affektiv –ijtimoiy) modeli muhandislik ta'limi vazifalariga mos tipologik indikatorlar bilan operatsionallashtiriladi; ikkinchidan, loyiha-ijodiy ta'limni raqamli vositalar (AI, VR/AR, CAD/CAE, data-analitika) [3] bilan integratsiyalashgan didaktik arxitekturasi taklif etiladi; uchinchidan, natijalarni kompetensiyaviy ko'rsatkichlar orqali o'lchash uchun mezonlar, rubrikatorlar va evidensiyaga asoslangan baholash ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlarda "innovatsion tafakkur" ko'pincha uch yo'nalishda talqin etiladi: kognitiv qatlam – tanqidiy va tizimli fikrlash, muammolarni qayta formulalash, g'oya generatsiyasi (divergent fikrlash) hamda g'oyalarni baholash (konvergent fikrlash); metakognitiv qatlam – refleksiya, o'z-o'zini monitoring qilish, xatodan o'rganish, o'rganishni o'rganish; mffektiv-ijtimoiy qatlam – ijodiy motivatsiya, tavakkalchilikka konstruktiv munosabat, hamkorlik, kommunika-tsiya va yetakchilik.

Ko'plab manbalarda ushbu qatlamlar alohida yoritiladi, biroq ularning integral o'zaro ta'sir mexanizmi (masalan, ijodiy motivatsiyaning metakognitiv strategiyalarni faol-lashtirishi) yetarli darajada modellashtirilmaganligi qayd etiladi. Shuningdek, "innovatsion tafakkur"ni faqat ijodkorlik bilan tenglashtirish tendensiyasi bor; holbuki, innovatsion tafakkur ijodkorlikdan tashqari qadriyatlar, me'yoriy-huquqiy mas'uliyat, tadbirkorona fikrlash va barqarorlik tamoyillarini ham qamrab oladi.

Muhandislik ta'limi paradigmalari: konstruktivizm va faoliyat yondashuvi - bilimlar shaxsiy tajriba asosida quriladi; talaba subyekt sifatida loyiha, tajriba va prototiplash orqali "bilim yaratish" jarayoniga kiradi; dizayn-fikrlash (Design Thinking) – empatiya - muammoni aniqlash – g'oya – prototip - sinov bosqichlari muhandislik muammolarini inson markazidagi yechimlar bilan bog'laydi; adabiyotlar buni innovatsion tafakkurni "faol kontekst"da shakllantirishning tayanch mexanizmi sifatida ko'rsatadi; CDIO/ABET standartlari - "Conceive–Design–Implement–Operate" sikliga mos ta'lim arxitekturasi, natijalar bo'yicha kompetensiyalar (outcome-based) bilan birga baholashni ham tizimlashtiradi [5]. TRIZ va tizimli fikrlash – qarama-qarshiliklarni yechish, funksional-tizimli tahlil, soddalashtirish va patent-landshaftga suyanish orqali ijodiy muhandislik yechimlarini strukturaviylashtiradi. STEAM integratsiyasi - san'at va gumanitar komponentlar tasavvur, vizual fikrlash va foydalanuvchi tajribasini kuchaytirib, innovatsion tafakkurni "texnik + estetik + ijtimoiy" uchbur-chagida rivojlantiradi. Innovatsion tafakkurni rivojlantirish ta'lim texnologiyalari PBL, PjBL, raqamli vositalar kabilarni qamrab oladi. Muammo asosli (PBL) va loyiha asosli (PjBL) ta'lim talabning muammoga egaligi, autentik kontekst va jamoaviy hamkorlik orqali ijodiy-kompleks fikrlashni faollashtiradi. Adabiyotlarda PBL/PjBL ayniqsa metakognitiv strategiyalar va transversal ko'nikmalarni kuchaytirishi ta'kidlanadi. Raqamli ekotizimlar – CAD/CAE/CFD, raqamli dvoyniklar, VR/AR laboratoriyalar, mikroxiizmatlar (Git, CI/CD), ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt vositalari (generativ AI, kod-avtocomplete, simulyatsiya yordamchilari) – bular dizayn siklini

tezlashtiradi, iteratsiyalar sonini oshiradi va riskni kamaytiradi [7].

Kompetensiyaviy natijalar: ABET/CDIO rubrikalari, SOLO taksonomiyasi, analitik rubrikatorlar, Rasch model-lashtirish asosidagi shkalalar. Dizayn jarayoni ko'rsatkichlari: prototiplar soni, iteration sikli davomiyligi, foydalanuvchi fikri (UX metrikalar), talabga javob darajasi, TRIZ andozalariga ko'ra yechim yangiligi [8]. Raqamli izlar (learning analytics): versiya tarixi, commit'lar, simulyatsiya loglari, eksperiment protokollari – formatif baholashni ob'ektivlashtiradi. Adabiyotlardagi umumiy muammo – baholashning parchalanganligi: ijodkorlikni o'lchash bor, lekin uni tizimli fikrlash, dizayn sifati va iqtisodiy samaradorlik bilan bir ketma-ket ramkada bog'laydigan integrativ metrikalar kam.

Kontekstualizatsiya: mahalliy ehtiyojlar va global standartlar [5]. Ko'plab tadqiqotlar global ramkalarini (CDIO/ABET, UNESCO ko'nikmalari) tavsiya etadi, biroq ularni mahalliy sanoat ehtiyojlari, milliy me'yoriy asoslar (masalan, standartlashtirish va xavfsizlik talablari), til-madaniyat hamda resurs cheklolariga moslashtirish bo'yicha amaliy metodikalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan [6]. Mahalliy kontekstda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan o'quv loyihalari, duallik elementlari, hamkor korxonalar bilan qo'shma laboratoriyalar tashkil etish ilg'or tajriba sifatida ko'rsatiladi, ammo mezonlar, ko'rsatkichlar va boshqaruv mexanizmlari bo'yicha aniq tavsiflar ko'pincha yo'q. Tadqiqotlar metodologiyasi: kuchli va zaif tomonlar quyida keltirilgan: kuchli jihatlar: aralash metodlar (mixed methods), ko'p manbali dalillar (portfolio, pitch, peer-review), uzunlamasına kuzatuvlar (longitudinal) innovatsion tafakkurni dinamik jarayon sifatida o'rganishga yordam beradi. Zaif jihatlar: kichik tanlovlar, nazorat guruhlarining yetishmasligi, tashqi validlik pastligi, natijalarni boshqa kontekstga ko'chirishdagi cheklolar, o'lchov vositalarining psixometrik xususiyatlari (ishonchlilik, konstrukt validlik) yetarli asoslanmagan holatlar. Bo'shliqlar (gaplar) va muammoli zonalarga quyidagilarni kiritish mumkin: Integrativ model: kognitiv–metakognitiv–affektiv–ijtimoiy qatlamlarni dizayn sikli va tadbirkorlik bosqichlari bilan yagona arxitekturaga birlashtirish zarur. Baholash tizimi: ijodkorlik, tizimli fikrlash, dizayn sifati, foydalanuvchi qadriyati va iqtisodiy samaradorlikni bog'laydigan kompozit indeks va yakdil rubrikatorlar yetarli emas [9]. Raqamli vositalar: AI/VR/CAE integratsiyasining didaktik retseptlari (qachon, qaysi bosqichda, qanday vazifa bilan) ko'pincha umumiy qoladi. Kontekstga moslashtirish: global standartlarni milliy sanoat talablari, til-madaniyat va resurslar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha operatsion protokollar kam. Uzoq muddatli ta'sir: bitiruvchilarning ish faoliyati, startap faoliyati, patentlash va texnologiya transferiga ta'sir etuvchi uzoq muddatli indikatorlar kam o'lchanadi. Sintetik xulosa: konseptual yo'nalish. Adabiyotlar ko'rsatadiki, innovatsion tafakkurni samarali shakllantirish uchun muhandislik ta'limi "maqsad–mazmun–jarayon–natija" zanjirida quyidagicha yaxlit yig'iladi: Maqsad: kognitiv + metakognitiv + affektiv + ijtimoiy ko'nikmalarni sanoat ehtiyojlari va barqarorlik talablari bilan uyg'un rivojlantirish; Mazmun: PBL/PjBL, dizayn-fikrlash, TRIZ, tizimli fikrlash, tadbirkorlik va etik-huquqiy modul; Jarayon: AI/VR/CAE va sanoat bilan hamkor qo'shma loyihalar, prototiplash, iterativ testlar, foydalanuvchi bilan validatsiya;

Natija: kompetensiyalarning kompozit bahosi – ijodkorlik + dizayn sifati + funksionallik + foydalanuvchi qadriyati + iqtisodiy samaradorlik + barqarorlik mezonlari. Shu tariqa, mavjud adabiyotlar mustahkam nazariy zamin yaratgan bo‘lsa-da, integrativ baholash, kontekstual implementatsiya va raqamli-didaktik retseptlar bo‘yicha tizimli yechimlar hali ham yetishmaydi. Maqolaning keyingi qismi aynan shu bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun konseptual model, metodik tamoyillar va o‘lchovlar arxitekturasini taklif etishga qaratiladi. Innovatsion tafakkurni ivojlantiruvchi interaktiv metodlar quyidagilardan tashkil topgan [5].

1. Design Thinking (DT) – empatiya → muammo ta’rifi → g‘oya → prototip → sinov. *Qachon:* noaniq, inson markazli muammolar. *Natija:* ijodkorlik, tez iteratsiya. 2. Project-Based Learning (PBL) – real buyurtmachi bilan semestrlik loyiha. *Qachon:* ko‘p kompetensiya talab qilganda. *Natija:* hamkorlik, mas’uliyat, natijaga yo‘naltirish. 3. Problem-Based Learning (PBL-muammo) – kichik guruhlarda “ochiq” muammolarni hal qilish. *Qachon:* nazariyani amaliyotga bog‘lash. *Natija:* tanqidiy fikrlash, dalillash. 4. TRIZ – ixtirochilik masalalarini hal qilish algoritmlari (qarama-qarshilik, 40 prinsip, ARIZ). *Qachon:* texnik to‘siqlar. *Natija:* tizimli yechimlar, “qotib qolgan” fikrni buzish. 5. SCAMPER – Substitute, Combine, Adapt, Modify, Put to other use, Eliminate, Reverse. *Qachon:* mahsulot/g‘oyani yaxshilash. *Natija:* ko‘p g‘oya, tez divergensiya. 6. Brainwriting 6-3-5 – 6 kishi × 3 g‘oya × 5 aylanish (yopiq yozma ideatsiya). *Qachon:* introvertlar ishtiroki kerak bo‘lganda. *Natija:* 108 g‘oya/30–40 daqiqada. 7. Morfologik tahlil – parametrlar × qiymatlar matritsasi. *Qachon:* konseptlar makonini tizimli qidirish. *Natija:* noodatiy kombinatsiyalar. 8. Case-method + Socratic savollar – real holatlar, “nega?”, “qaerda dalil?”. *Natija:* qaror qabul qilish, dalilga tayanuvchi fikrlash [10]. 9. Hackathon va Rapid Prototyping 24-48soatlik sprintlar, tezkor MVP.

Natija: vaqt bosimi ostida innovatsiya, jamoa dinamikasi. 10. Simulyatsiya/VR-lab – xavfsiz muhitda tajriba, “nima bo‘lsa?” ssenariylari. *Natija:* tizimli fikrlash, xatodan o‘rganish.

Mulohaza. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik ta’limi mazmunini yangilash, unda innovatsion tafakkurni shakllantirish muhim ilmiy va amaliy masalaga aylandi. Innovatsion

tafakkur – bu mavjud muammolarga yangicha yondashish, ijodiy fikrlash, tahliliy va konstruktiv qarorlar qabul qilish qobiliyatidir [6]. Muhandislik ta’limida ushbu sifatlarni rivojlantirish nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki shaxsning ilmiy-tadqiqot, texnikaviy va boshqaruv faoliyatidagi samaradorligini ham belgilaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion tafakkur an’anaviy ta’lim yondashuvlaridan tubdan farq qiladi. U talabalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, muhandislik ta’limi metodologiyasi faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy va innovatsion faoliyatni uyg‘unlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi zarur.

Natijalar. O‘tkazilgan ilmiy manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, muhandislik yo‘nalishidagi kadrlarni tayyorlashda tizimli va integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, fanlararo integratsiya, texnik ijodkorlik, texnologik dizayn, va tadbirkorlik elementlarini birlashtirish orqali talabalarda innovatsion tafakkur shakllanadi. Shuningdek, raqamli platformalar, simulyatsion modellar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv vositalaridan foydalanish muhandislik ta’limining samaradorligini oshiradi. Natijada, bozor iqtisodiyoti talablariga mos, raqobatbardosh, texnologik yangiliklarni yaratishga qodir muhandis kadrlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan ilmiy-tahliliy izlanishlar natijasida aniqlanishicha, innovatsion tafakkur muhandislik ta’limining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsion tafakkur – bu shaxsning yangilik yaratishga, mavjud muammolarga nostandart yondashishga, texnologik jarayonlarni tahlil qilish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ijodiy-intellektual salohiyatidir [8]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muhandislik ta’limining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quv jarayonining innovatsion komponentlari bilan boyitilishiga, ya’ni nazariya va amaliyotni integratsiyalash darajasiga bog‘liqdir. Innovatsion tafakkurga ega talaba texnik muammolarni tahlil etish, yangi yechimlarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, muhandislik ta’limining asosiy maqsadi – zamonaviy ilmfan yutuqlari, texnologik yangiliklar va ijodiy fikrlashni uyg‘unlashtirgan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir [5].

Adabiyotlar

1. Ramirez de Dampierre M., Gaya-Lopez M. C., Lara-Bercial P. J. Evaluation of the Implementation of Project-Based-Learning in Engineering Programs: A Review of the Literature. *Education Sciences*, 14(10), 11.07. 2024.
2. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. Crawley E. F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D.R., Edström K. *Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach*. CDIO Initiative (PDF/Syllabus). 2014.
4. Turakulova M.K. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta’lim turlari va vositalarini tanlash. // *Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal*. – Buxoro: 2019. №5. 104-108-b.
5. Turakulova M.K., Tukhtaeva Z.Sh., Turakulova B.B., Muminova M.S. Pedagogical innovation and the use of debate method in teaching technical sciences// *International Engineering Journal For Research & Development*. April 2020. Vol.5, Issue 3. Impact factor: 6.03 – P. 151-155.

REZYUME. Maqolada innovatsion tafakkur va muhandislik ta’limining nazariy-metodologik asoslari tizimli yondashuvda tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi – raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlaydigan konseptual model va didaktik yechimlarni asoslashdir. Metodlar: konseptual tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv, taqqoslama pedagogik tahlil, dizaynga asoslangan tadqiqot (DBR) elementlari. Natijalar: innovatsion tafakkur komponentlari (kognitiv-analitik, kreativ-ijodiy, texnologik-raqamli, tadbirkorlik-loyihalash) va ularni rivojlantiruvchi metodik majmua (STEAM, PBL/PrBL, CDIO, TRIZ, raqamli tvins/VR-AR, AI-asosli simulyatsiyalar) integratsiyalashgan modelda ifodalandi.

РЕЗЮМЕ. В статье системно рассматриваются теоретико-методологические основания инновационного мышления и инженерного образования. Цель исследования – обосновать концептуальную модель и дидактические решения, обеспечивающие формирование инженерных компетенций в условиях цифровой трансформации. Методология включает концептуальный анализ, системно-структурный подход, сравнительную педагогику и элементы design-based research. Результаты: выделены компоненты инновационного мышления (когнитивно-аналитический, креативно-творческий, технологически-цифровой, предпринимательско-проектный) и представлена интегрированная модель их развития через STEAM, PBL/PrBL, CDIO, TRIZ, цифровые двойники/VR-AR и AI-симуляции.

SUMMARY. This paper provides a systems-level analysis of the theoretical and methodological foundations of innovative thinking within engineering education. The study aims to justify a conceptual model and instructional solutions that foster engineering competencies amid ongoing digital transformation. Methods include conceptual analysis, system-structural reasoning, comparative pedagogy, and elements of design-based research. Findings: we articulate the core dimensions of innovative thinking (cognitive-analytic, creative-inventive, technological-digital, and entrepreneurial-project) and integrate them into a development model leveraging STEAM, PBL/PrBL, CDIO, TRIZ, digital twins/VR-AR, and AI-driven simulations.

KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

E.U.Xudoyberdiyev – mustaqil tadqiqotchi
Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch soʻzlar: kasbiy kompetensiyalar, innovatsion pedagogika, taʼlim tizimi, yondashuvlar, pedagogik metodlar.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, инновационная педагогика, образовательная система, подходы, педагогические методы.

Key words: professional competencies, innovative pedagogy, educational system, approaches, pedagogical methods.

Kirish. Kasbiy kompetensiyalar bugungi kunda taʼlim tizimining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Har bir mutaxassisning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nafaqat ilmiy bilimlar, balki amaliy koʻnikmalar va shaxsiy fazilatlar ham zarur. Kasbiy kompetensiya – bu shaxsning oʻz kasbiga oid bilim, koʻnikma va malakalariga asoslangan qobiliyatini shakllantiradigan kompleks tushuncha sifatida taʼriflanadi. Oʻquv jarayonining maqsadi shunday kompetensiyalarni shakllantirishdir. Taʼlim tizimi, oʻz navbatida, nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarga amaliy koʻnikmalarni oʻrgatish, ularda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va oʻzlarini ish bozoriga tayyorlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak [4:48].

Zamonaviy pedagogika bu maqsadga erishish uchun yangicha yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqmoqda. Innovatsion pedagogik metodlar, masalan, muammoli oʻrganish, loyiha asosida oʻrganish va individual yondashuvlar, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda katta rol oʻynaydi [2:113]. Shuningdek, texnologiyalar va onlayn taʼlimning rivojlanishi taʼlim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi taʼlim sohasida oʻzgacha oʻrin tutadi. U nafaqat talabalarining maʼlum bir kasbga oid bilimlarini oʻzlashtirishini ifodalaydi, balki bu bilimlarni amaliyotda qoʻllash, shaxsiy rivojlanish, muammolarni hal qilish va ish muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish kabi jihatlarni ham oʻz ichiga oladi.

Metodlar. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

✓ bilimlar – kasbga oid nazariy bilimlar, metodlar, qonunlar;

✓ koʻnikmalar – bilimlarni amaliyotda qoʻllash, problemalarni hal qilish, texnologiyalarni ishlatish;

✓ malakalar – ish faoliyatida yuqori samaradorlikni taʼminlash uchun zarur boʻlgan qobiliyatlar, tajriba.

Taʼlim tizimi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Taʼlim tizimining asosiy maqsadi – bu nafaqat bilim berish, balki talabalarda amaliy

koʻnikmalarni rivojlantirishdir. Shunday qilib, taʼlim jarayonida kasbiy kompetensiyalarga oid yoʻnalishlar, oʻquv dasturlari va metodlar kengaytirilishi kerak [6:661].

Zamonaviy taʼlim tizimi, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda anʼanaviy usullardan tashqari, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qoʻllashni talab qiladi. Innovatsion pedagogika taʼlimning samaradorligini oshiradigan, yangi metodlar va texnologiyalarni oʻz ichiga olgan pedagogik yondashuvlarni taʼkidlaydi.

Bundan tashqari, taʼlim jarayonini oʻzgartirishda muammoli oʻrganish (problem-based learning), loyiha asosida oʻrganish (project-based learning), tanqidiy fikrlash (critical thinking), blended learning va flipped classroom kabi yondashuvlar muhim rol oʻynaydi [8:146]. Bu yondashuvlar talabalarga faqat bilimlarni oʻrganish emas, balki oʻrganilgan bilimlarni amaliyotda qoʻllashni ham taʼminlaydi. Jumladan, quyidagi taʼlim metodlari muhimdir:

- muammoli oʻrganish metodi orqali talabalar muammoni hal qilish jarayonida oʻz bilimlarini rivojlantiradilar, bu yondashuv taʼlim jarayonini yanada qiziqarli va amaliy qiladi;

- loyiha asosida oʻrganish metodi – talabalar amaliy loyihalar orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradilar, bunda “Loyiha asosida oʻrganish” metodi talabalarga real dunyo muammolarini hal qilishni oʻrgatadi;

- “Blended learning” metodi – taʼlimning onlayn va anʼanaviy shakllarini birlashtirish orqali taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu metodlar nafaqat bilimlarni oʻzlashtirish, balki talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, kreativ fikrlashiga va jamoaviy ishlash koʻnikmalariga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Natija. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa onlayn taʼlim, e-learning, va virtual haqiqat (VR) kabi innovatsion texnologiyalar taʼlim jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Onlayn platformalar va virtual sinflar talabalarga oʻqish va oʻrganishni yanada qulay va samarali qilish imkoniyatini beradi [3:390]:

✓ E-learning, ya'ni elektron o'quv resurslari va kurslar yordamida talabalar o'zlariga qulay vaqtda bilim olishlari mumkin, bu metod talabalarga individual yondashuvni ta'minlaydi.

✓ simulyatsiyalar va virtual haqiqat – virtual haqiqat texnologiyalari yordamida talabalar real ish sharoitlarini simulyatsiya qilgan holda ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Masalan, tibbiyot, muhandislik yoki me'morchilik kabi sohalarda VR texnologiyalari talabalarga real sharoitda amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga imkon beradi.

Talabalar individual xususiyatlarini inobatga olish, ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Individual yondashuv talabalar qiziqishlari, ehtiyojlari va o'rganish uslublariga mos ravishda ta'lim berishni anglatadi. O'qituvchilar har bir talabaning rivojlanish darajasini va ehtiyojlarini tushunib, o'quv jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi kerak [1:260].

Pedagogning roli faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U talabaning kasbiy rivojlanishiga yordam beruvchi yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va o'rnak ko'rsatuvchi bo'lishi kerak. Pedagogning shaxsiy rivojlanishi va doimiy malaka oshirish jarayonlari ham ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda roli beqiyosdir. Pedagoglar nafaqat ta'lim berish, balki talabalar kasbiy rivojlanishiga yordam berish uchun o'zlarining pedagogik kompetensiyalarini doimiy yangilab turishlari zarur [5:182]. Pedagogning malakasi nafaqat bilimga, balki pedagogik metodlar, psixologiya, innovatsion yondashuvlar va kommunikatsiya ko'nikmalariga ham bog'liqdir.

Muhokama. Zamonaviy ta'lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlarning tahlili talabalarni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda qanday muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi (1-rasm). O'qituvchilarni yangicha yondashuvlar asosida tayyorlash, ta'lim tizimini yanada samarali qilishga imkon yaratadi.



1-rasm. Talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodlar

Yangi pedagogik metodlar nafaqat talabalarni bilim bilan ta'minlash, balki ularda o'rganish jarayonini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi. Bunda eng muhim yondashuvlar quyidagilardir:

Flipped classroom (aylanma dars). Bu metodda o'qituvchi darsni an'anaviy tarzda olib bormaydi, balki talabalar dars materiallarini uyda o'qib, darsda o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydi. Bu metod talabalarga o'z vaqtini rejalashtirish va mustaqil ravishda ishlashga yordam beradi, shuningdek, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Gamifikatsiya. O'rganish jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali talabalarni yanada faol va motivatsiyalan gan holda o'rganishga jalb qilish mumkin. Bu yondashuv talabalarni o'z maqsadlariga erishishga undaydi va ularni o'rganish jarayonida qatnashishga rag'batlantiradi.

Kooperativ o'rganish (collaborative learning). Bu yondashuvda talabalar jamoaviy tarzda ishlashadi, masalalarni birgalikda hal qilishadi va o'zaro yordam beradi. Kooperativ o'rganish talabalarga jamoaviy ishni amalga oshirishni o'rgatadi, bu esa kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muammoli o'rganish (problem-based learning). Bu metodda talabalar haqiqiy dunyodagi muammolarni hal qilishga o'rgatishadi. Talabalar mavjud muammolarni tahlil qilib, ular uchun yechimlar topishga harakat qilishadi. Bu metod talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishda, ayniqsa o'qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish muhimdir. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi va talabalarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga imkon yaratadi [8:146].

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim tizimining roli va innovatsion pedagogik yondashuvlar nihoyatda katta. Ta'lim tizimi, zamonaviy pedagogik metodlar, texnologiyalar va individual yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarni nafaqat bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Pedagogik metodlarni yangilash va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish, talabalarga kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Xulosa. Pedagoglar o'z malakalarini doimiy yangilab borishlari, talabalar individual ehtiyojlarini inobatga olishlari va yangi yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq etishlari zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun talabalar fikrlash, kommunikatsiya va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ta'lim tizimi innovatsion metodlarga asoslanishi, talabalarga nafaqat bilimlar, balki real ish sharoitlarida qo'llaniladigan amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatishi kerak.

Adabiyotlar

1. Anderson C., Krathwohl D. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. // Longman, 2001. – P. 258-264.
2. Gibbons M. The New Production of Knowledge: The Dynamics of Science and Research in Contemporary Societies. // SAGE Publications, 2004. – P. 112-118.
3. Guskey T. R. Professional Development and Teacher Change. // Teachers and Teaching: Theory and Practice, 8(3). 2002. – P. 381-391.

4. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. // Teachers College Press. 2012. – P. 45-52.
5. Perrenoud P. Developing Competence in Education: Teaching and Learning for a Complex World. // Cambridge University Press, 2005. – P. 178-192.
6. Sh T.Z., Kizi R. G. A. The main consumer properties and clothing requirements of tourism personnel. // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1). 2022. – P. 658-663.
7. To'xtayeva Z.S., Saparbayeva N.K., Mamatova S.S. Bilimning empirik usullarini tikuv buyumlariga ishlov berish jarayonida qo'llash. // Ilmiy tadqiqot va innovatsiya, 2(4). 2003. 54-57-b.
8. Tukhtaeva Z.Sh., Rahmatova B.K. Reflexive – Importance and stages of innovative technologies in teacher activity. // American Journal of Pedagogical and Educational Research. 2024; 29: - P. 144-148.
9. Тухтаева З.Ш. Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании. Монография. – Москва: «Бук», 2012.
10. Тухтаева З., Рахматова Б. Развитие творческого мышления студентов в подготовке к инновационной профессиональной деятельности. Информатика. Экономика. Управление - Informatics. Economics. Management, 4(4), 5001–5007. <https://doi.org/10.47813/2782-5280-2025-4-4-5001-5007>. 2025.

REZYUME. Maqolada kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim tizimi va pedagogik yondashuvlarning o'rni tahlil etilib, zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion texnologiyalar, va individual yondashuvlar orqali kasbiy kompetensiyalarni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida so'z yuritiladi, shuningdek, tezisda ta'lim jarayonida talabalarni mehnat bozoriga tayyorlashda ko'proq e'tibor qaratish lozimligi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy metodlar va yondashuvlar, hamda talabalarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda pedagoglarning o'rni o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется роль образовательной системы и педагогических подходов в формировании профессиональных компетенций, а также рассматривается, каким образом с помощью современных педагогических методов, инновационных технологий и индивидуальных подходов можно развивать профессиональные компетенции. В работе подчеркивается важность подготовки учащихся к трудовому рынку в образовательном процессе, а также изучены современные методы и подходы формирования профессиональных компетенций и роль педагогов в обеспечении личностного развития учащихся.

SUMMARY. The article analyzes the role of the educational system and pedagogical approaches in the development of professional competencies. It discusses how professional competencies can be enhanced through modern pedagogical methods, innovative technologies, and individual approaches. The thesis emphasizes the importance of preparing students for the labor market within the educational process, and examines the role of modern methods and approaches in the development of professional competencies, as well as the importance of educators in ensuring the personal development of students.

STUDENTLERDİN LEKSİKALÍQ KOMPETENCIYASÍN FRAZEOLÓGIYALÍQ BIRLIKLER ARQALÍ JETILISTIRIW

G.J.Jalgasbaeva – *assistant oqitwshi*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: leksik kompetensiya, frazeologik birliklar, pedagogik faoliyat, ko'nikma va malakalar, shaxsiy faollik, lingvistik jihat.

Ключевые слова: лексическая компетенция, фразеологические единицы, педагогическая деятельность, навыки и умения, личная деятельность, лингвистический аспект.

Key words: lexical competence, phraseological units, pedagogical activity, skills and abilities, personal activity, linguistic aspect.

Kirisiw. Zamanagóy joqarı bilimlendiriw paradigmasınıń ózgeriwı professional iskerlik subyekti sıpatında bolajaq filologtıń tiykarǵı kompetensiyaların qalıplestiriwdiń nátiyjeli jolların izlew zárurlıǵın aktuallastırmaqta. Atap aytqanda, filolog-student hár qıylı túrdegi – oqıw, miynet, estetikalıq, izertlew jumsların ámelge asırıw ushın zárúr bilim, kónlikpe hám uqıplılıqqa iye bolıwı; pedagogikalıq iskerlikte erkin baǵdar alıwı, óziniń kásiplik iskerliginiń individual strategiyası hám taktikası islep shıǵıwǵa tayar bolıwı, pedagogikalıq metodika hám texnologiyalardı ámelge asırıwı zárúr.

Filolog-studentlerdi tayarlawdıń áhmiyetli táreplerinen biri leksikalıq kompetenciyanı qalıplestiriw bolıp esaplanadı. Bul proceste tiykarǵı rol sóz ústinde islewge beriledi: onıń mánisi, qollanıwı, sinonimlik hám antonimlik qatnasıqlarǵa kirisiw qábileti, basqa sózler menen birige alıwı. Bul bolajaq filologlardıń leksikalıq kompetensiyasınıń tiykarǵı kórsetkishlerinen biri – sóz baylıǵı, óz pikirlerin durıs, izbe-iz hám emocionallıq

bayanlay alıwı menen baylanıslı. Bolajaq filologtıń aktiv sóz baylıǵı qanshelli bay bolsa, onıń awızeki hám jazba sóylewi sonshelli mazmunlı boladı. Filolog-studentlerdiń aktiv sózlik quramın bayıtıw, sóylewdiń grammatikalıq dúzilisin jetilistiriw, sóylew ámeliyatın ózlestiriw kópshilik jaǵdaylarda frazeologizmler menen ámelge asırıwı kerek. Atap aytqanda, awızeki hám jazba sóylewde frazeologiyalıq birliklerden durıs hám orınlı paydalana alıw tildi ózlestiriwdiń joqarı dárejesinen dárek beredi.

Izertlew metodologiyası. Bolajaq filologlardıń kásiplik iskerliginde kommunikaciyanıń lingvistikalıq aspektlerin úyreniwge (E.A.Golovko, I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, F.K.Urakova, E.V.Filatova hám t.b.); filologiya baǵdarınıń pitkeriwshisiniń leksikalıq kompetensiyasınıń úyreniwge (V.I.Baydenko, N.A.Grishanova, E.N.Kovtun, S.E.Rodionova hám t.b.) miynetlerin kórsetse boladı.

Ilmiy jantasıwları (shaxsiy-iskerlikli, shaxsqa baǵdarlangan, kompetensiyalıq, kommunikativ-baǵdarlangan,

differenciállastırılğan, sistemalı) talqılaw «leksikalıq kompetenciya» terminologiyalıq túsiniğiniń mánisin anıqlaw imkanıń berdi [1].

Leksikalıq kompetenciyanı qáılestiriwdiń teoriyalıq tiykarlarınń lingvistikalıq tiykarın sózdiń kategoriyalıq belgileri quraydı:

- sóz sóylewdiń tiykarǵı birlikleriniń biri sıpatında mániǵe iye hám sistemaniń elementi bolıp, leksikalıq dárejede kórinedi hám bir pútin sistemalıq qurılıstı ańlatadı;

- leksikanı sapalı, sanalı ózlestiriw procesi basqa sózler menen leksikalıq baylanıslardı «jasırıw» arqalı ámelge asırıladı.

Leksikanı ózlestiriw leksikalıq kónlikpelerdi qáılestiriw menen tıǵız baylanısta júz beredi. Leksikalıq kónlikpelerdi tildi oqıtıw mazmunınıń eń áhmiyetli komponenti dep qaraw kerek, olardı qáılestiriw bolsa leksikalıq materialdı oqıtıwdıń maqseti bolıp tabıladı [2].

Sóylewdiń mazmun tárepini leksika belgileydi. Áyne leksika sóylewshiniń shaxsın eń tolıq hám anıq usınadı, onıń aqlıy rawajlanıwı, imkanıyatları dárejesi, ulıwma hám sóylew mádeniyatınıń jaǵdayı haqqında túsiniw beredi. Hár bir insan óz shaxsın bildiriw ushın sózden paydalanadı. Sóylewshilerdiń jas hám individual ózgeshelikleri leksikada kóbirek sáwlelenedi. Leksikalıq baylıqtıń tómenligi tolıq múnásibet, shaxstıń ruwxıy hám aqlıy, emocionallıq-sezimlik rawajlanıwı procesin qıyınlastıradı.

Sóz máselesi til bilimindegi eń kóp talqılanatuǵın máselelerdiń biri bolıp esaplanadı, sebebi sóz – tildiń tiykarǵı birliǵi bolıp, onıń barlıq sistemasına sińip ketedi; sózlerdi dúziw ushın tiykarǵı material bolıp, onıń járdeminde adamlar arasında sóylesiw ámelge asadı; haqıyqatlıq faktlerin atawdıń tiykarǵı birliǵi bolıp esaplanadı.

Sózlik dereklerinde sóz insanıń óz pikir hám sezimlerin bayanlaw, sóylew, baylanısw qábiletiniń ayrıqsha qábileti sıpatında talqılanadı [3]. Tilshi ilimpazlar sózdi tildiń tiykarǵı funkcionál-strukturalıq hám semantikalıq birliǵi, ses yamasa sesler kompleksinen quralǵan, óz betinsheligi hám qayta tákirarlanıwı menen ajırılıp turatuǵın birlik sıpatında táriyipleydi.

Sóz belgili bir mániške iye hám sóylewde óz betinshes bir pútinlik sıpatında qollanıladı; adam tárepinen bilinetuǵın tábiyat hám jámiyet, qatnaslar hám gárezliliklerdiń barlıq predmet hám qubılıslarına atama beredi, adamnıń sezimlerin, emocionallıq reakciyaların hám erkirarın bildiriw ushın xızmet etedi; óz betinshes jámiyetlik-kommunikativlik ámeliyat penen bekkemlengen mániške iye bolıp, predmetti, qubılıstı ataydı; ózine tán individual mánişi menen tildiń sózlik quramına kiredi; eki tárepleme birlik bolıp, onıń quramında bayanlaw planı (ses qabıǵı) hám mazmun planı (máni) turadı [4].

Analiz hám nátiyjeler. Sóz til birliǵi sıpatında ózine jaqın sóylew birliklerinen (morfema hám gáp), qońsı sózden ajratıp turatuǵın, óz tábiyatına sáykes keliwshi anıqlamanı talap etedi. Birinshi gezekte, tildiń basqa birlikleri (fonemalar, morfemalar, sóz dizbekleri, gáppler) sol yamasa basqa dárejede sóz fonında qabil etiliwi hám ol menen sistemalı qatnaslar arqalı baylanıslı bolıwı sebepli sózdiń til sistemasındaǵı oraylıq ornı argumentlewdi talap etedi. Sóz tildiń barlıq komponentleriniń – fonetikanıń (seslerden turadı), leksikanıń (hárqanday hádiyseni ańlatadı, kodlaydı, mánilik júk tasiydi), grammatikanıń (belgili grammatikalıq formada boladı) wákili bolıp tabıladı.

Fonemanıń til birliǵi sıpatındaǵı statusı onıń sózlerdiń mánilik hám formalıq differenciállasıwındaǵı roli menen, morfemanıń tildiń minimal áhmiyetli birliǵi sıpatında sózdi konstrukciyalawı menen, al usınıstıń tildiń ierarxiyasındaǵı joqarı áhmiyetli birliǵi sıpatında onıń quramlıq bólegi bolǵan sózler menen belgilenedi. Solay etip, sóz tildiń barlıq sistemasına kirip bariwshı oraylıq birlik bolıp xızmet etedi.

F.Zunnunov, M.Xayrullaev v.b. [3], U.Aleuov [2], O.Musurmonova [5-6], M.Abdullaev [1], N.Masharipova [4]lar xalq pedagogikasi vositasida yosh avlodni ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalashning turli yo'nalishlarini tadqiq etganlar. Ushbu tadqiqotlarida o'zbek va qoraqalpoq etnopedagogikasining kelib chiqishi, rivojlanish tendensiyalari, bosqichlari, tarixiy istoriografik tomondan yondashilgan holda tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlar o'zining nazariy va amaliy ahamiyatiga ko'ra etnopedagogikaning nazariy hamda nazariy-metodologik asoslarini anglash, etnopedagogika fanini o'quv fani sifatida o'rganish va xalq pedagogikasini ta'lim jarayoniga joriy etishning amaliy vazifalarini bajarish masalalarini yanada kengroq talqin etish imkoniyatini yaratadi.

Etnopedagogikaning mazmuni va etnopedagogik tadqiqotlarni oliy pedagogik ta'lim sharoitida ham tahlil qilish masalasi kun sayin dolzarblashmoqda. Etnopedagogika fanini o'quv fani sifatida o'rganishning nazariy va nazariy-metodologik asoslarini yorituvchi dasturlar, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zaruriyati kuchaymoqda. Shu bilan birga, ularning mazmunida etnopedagogik tadqiqotlardagi muhim yo'nalishlardan biri etnopedagogik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi to'laonli tarzda aks ettirilishi talab qilinmoqda.

Etnopedagogik kompetensiya pedagogning xalq pedagogikasi sohasidagi bilim va ko'nikmalarga egaligini ifodalab, ular yordamida madaniy an'analar, folklor namunalari ertaklar, dostonlar, maqollar va xalq donoligini shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish, qadriyatlarini shakllantirish hamda inklyuziv va etnomadaniy yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish jarayonida samarali qo'llay olish imkonini beradigan bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va tajribalari majmuyidir. U pedagogika, etnologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlariga

oid bilimlarni o'z ichiga olib, o'qituvchining har bir o'quvchiga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatini taqdim etadi. Ko'rinib turibdiki, etnopedagogik kompetensiya pedagogning milliy ongi, etnik madaniyati va pedagogik mahoratini uyg'unlashtiruvchi kasbiy kompetensiya hisoblanadi.

Etnopedagogik kompetensiya orqali o'qituvchilar o'z xalqining milliy madaniyatini o'zlashtiradi va kelgusi avlodlarga taqdim etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy an'analar va qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llaydi va ulardan o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda foydalanadi. Etnopedagogik qadriyatlar bo'lajak o'qituvchilarda va o'quvchilarda fuqarolik va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tizimli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qator etnopedagogik qadriyatlar, birinchi navbatda odob-axloq ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Odob-axloq ko'nikmalari muayyan shaxsning ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi harakatlarini tartibga soluvchi, uning boshqalar bilan munosabatini sog'lom va milliy xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, malaka va odatlar majmuyidir. Odob-axloq ko'nikmalari odob-axloq qoidalariga asoslanadi. Shunga ko'ra odob-axloq ko'nikmalari, insonning axloqiy tarbiyalanganligi, o'zini tutish madaniyati, hamda ijtimoiy va ma'naviy normalarga muvofiq faoliyatlarini amalga oshirish ko'nikmasidir. Odob va axloq qoidalari, urf-odatlar va madaniy normalar haqidagi ma'lumotlar odob axloq ko'nikmalarini tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Odob-axloq ko'nikmalari shaxsning uyg'un, maqsadli, odobli harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi. Shaxsning axloqiy fazilatlarini va odobli xulqlari mehruhshabbat, shukronalik, saxovatdo'stlik, adolatparvarlik, tolerantlik, alturistik, mehmondostlik, bardoshlilik, muloqotga kirishuvchanlik kabi sifatlarini orqali namoyon bo'ladi. Odob-axloq ko'nikmalari insonlarning ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonida to'g'ri, adolatli, samarali qaror qabul qilishga ko'maklashadi.

Odob-axloq ko'nikmalari shaxsning o'z harakatlarini tartibli amalga oshirish, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, sog'lom odatlarga ega bo'lish, atrofdagilar bilan munosabatda axloqiy estetik talablarga amal qilish, maktab, oila, jamoa orasida yurish-turish qoidalari, xalqimizning urf-odatlarini, an'analariga rioya qilish, qadriyatlar va madaniy merosni hurmat qilish kabi turlari mavjud. Odob-axloq ko'nikmalari o'quvchi va talabalarda ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilimlar hamda xalqning amaliy tajribalarini uyg'unlashtirish orqali, ya'ni etnopedagogik qadriyatlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda, ularda odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirish asosiy o'rin egallaydi. Buning natijasida ta'lim muassasasi va oilada shaxslararo hurmat, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish rivojlanadi.

Odob-axloq ko'nikmalari jamiyatda totuvlik, hamjihatlik va madaniy merosni saqlashning asosiy vositasi hisoblanadi. U ta'lim oluvchilarning jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy integratsiyasini jadallashtiradi va shaxslararo munosabatlar jarayonida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Etnopedagogik kompetensiyalar ko'p qirrali tizimga ega bo'lib, xalq pedagogikasi nazariyasi, etnologiya va madaniyatshunoslik haqidagi bilim, ko'nikma, malakalar va tajribalarni o'z ichiga oladi. Etnopedagogik kompetensiya-

lar nafaqat bilim, ko'nikma yoki malaka, balki pedagogning kasbiy pozitsiyasi va shaxsiy dunyoqarashi bilan bog'liq. Shunga ko'ra pedagoglar milliy qadriyatlar orqali talabalarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydilar. Xalq pedagogikasi, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilimlarini uyg'unlashtirishni taqozo qiladi. Milliy urf-odatlar va qadriyatlar orqali talabalarda axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, o'zlikni anglash, mas'uliyatlilik, fuqarolik, oilaparvarlik, tabiatni avaylab asrash, undan zavqlanish, ona zaminga muhabbat kabi fazilatlar shakllantiriladi. Bu jarayonda turli madaniyatlar va xalqlarning etnopedagogik qadriyatlarining samarali uyg'unlashuvi hisobga olinadi.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyani shakllantirish ijtimoiy zaruriyat darajasiga ko'tarildi. Chunki etnopedagogik kompetensiya ommaviy va marginal madaniyat xurujlari tobora kuchayayotgan hozirgi globallashuv sharoitida milliy madaniyatni avaylab asrash va rivojlantirish nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi ta'minlanadi, talabachilarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va madaniyatlararo muloqot madaniyati rivojlanadi. Ta'lim muassasasi va jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhiti barqarorlashadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik kompetensiyani shakllantirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyatiga aylangan bugungi kunda ta'lim mazmunida xalq pedagogikasiga oid didaktik vositalarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, bu jarayonda pedagogika

turkum fanlari doirasida o'quv modullarini boyitishga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy, axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis, o'z faoliyati davomida milliy merosga tayanadigan shaxs sifatida shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlar alohida o'rin egallaydi.

Pedagogika tarixi yo'nalishida tadqiqotlarni amalga oshirgan mutaxassislar an'anaviy xalq tarbiyasining boy imkoniyatlarini o'rganish va undan talabalarda odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanishning vositalari, yo'llari, usullari va metodlarini taklif qilganlar. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchi va talabalarni tarbiyalash metodologiyasini ishlab chiqish falsafiy, umumilmiy va pedagogik darajalardagi fundamental nazariy-metodologik qonun-qoidalarga tayanadi. Ushbu qoidalar falsafiy darajada quyidagicha namoyon bo'ladi: bilimlarning rang barangligi, falsafiy va gnoseologik yondashuvlar hamda o'rganilayotgan nazariyalarga turlicha yondashish imkoniyatining mavjudligi kabilar.

Xulosa. Etnopedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar o'z xarakteriga ko'ra kognitiv jarayonning o'ziga xos shakli bo'lib, muayyan maqsadga yo'naltirilgan va tizimli ravishda amalga oshiriladigan milliy tarbiya va ta'limga oid an'analar, yondashuvlarni o'rganishni nazarda tutadi. Mazkur tadqiqotlar etnopedagogikaning vositalari, usullari, metodlarini aniqlaydi, undan foydalanish mexanizmlarini ko'rsatadi. Natijada talabalarda xalqimizning pedagogik bilimlari haqidagi tasavvurlar va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев М., Хакимов Э. Введение в этику. Краткий курс. – Изд. «Наманган», 1998.
2. Алеёв О. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиёи хәм раўажланыўы. – Нөкис: «Билим», 1993.
3. Зуннунов А., Хайруллаев М.в.б. Педагогика тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Тошкент: «Шарқ», 2000.
4. Машарипова Н.Р. Шарқ халқлари педагогик тафаккурида ўзлик тарбиясининг дидактик воситалари. Пед.фанл.бўйича фалс.докт. (PhD). – Самарканд: 2021. диссертацияси автореферати
5. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Musurmonova O. Oula – jamiyat tayanchi: monografiya. – Toshkent: «Yoshlar» nashriyot uyi, 2019.
7. Педагогика: энциклопедия. III жилд / езувчилар: жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017.

REZYUME. Maqolada etnopedagogika tushunchasiga ilmiy nuqtayi nazardan baho berilib, etnopedagogik qadriyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatligi haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье дается оценка понятию этнопедагогике с научной точки зрения и рассматривается социально-педагогическая необходимость совершенствования нравственных навыков будущих учителей на основе этнопедагогических ценностей.

SUMMARY. The article provides an assessment of the concept of ethnopedagogy from a scientific point of view and examines the socio-pedagogical necessity of improving the moral skills of future teachers based on ethnopedagogical values.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

D.B.Saburov – o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, o'quvchilar, ertaklar, xalq og'zaki ijodi, muammolar yechimi, metodlar, baholash, yaxshilik, yamonlik, ayuorlik.

Ключевые слова: критическое мышление, учащиеся, сказки, фольклор, решение задач, методы, оценка, хорошо, плохо, хитро.

Key words: critical thinking, students, fairy tales, folklore, problem solving, methods, evaluation, good, bad, cunning.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar

ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligi [1] va "...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o'qituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar o'zgaryapti. Shunga yarasha o'qituvchilar ham o'zgarishi kerak" [2], - degan fikrlari boshlang'ich sinf o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik va ilmiy-metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni o'qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilishni yanada kuchaytiradi. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Tanqidiy fikrlash" tushunchasi XX asr o'rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo'lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko'ra har bir tirik organizm muammolarni "hal qiluvchi" vazifasini bajargan. Atrofdagi ma'lumotlar dunyo tirik organizmning ma'nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi.


Tanqidiy fikrlash masalasi bo'yicha ish olib borgan xorijiy va MDH davlatlaridan V.S.Bibler, B.Burshteyn, A.V.Brushlinskiy, M.Vertgeyer, D.V.Vil'keev, Dj.Gilford, N.G.Dayri, A.Z.Zak, G.I.Ibragimov, A.A.Ivin, Z.I.Kalmikova, F.Klike, I.Ya.Lerner, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, M.IMaxmutov, S.O.Rubinsheyn, B.M.Teplov, O.K.Tixomirov, I.Frolov, V.S.Shubinskiy E.D.Bono, J.Daniya, M.Lipman, D.Halpern, D.Klouzlar tadqiq etgan.

A.E.Petrovlarning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo'lib, bunda inson o'z tafakkurini va uning to'g'riligini o'rganadi. A.Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi [3]. Rivojlanuvchi ta'lim konsyepsiyasiga tayangan holda A.V.Korjuyev, V.A.Popkovlar ta'lim berishni faqat ma'lumot olishga tenglashtirish mumkin emas, degan fikrni bildiradi.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy fikrlash bu — o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini-o'zi tarbiyalaydigan, o'zini-o'zi nazorat qiladigan va o'zini-o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qa'tiy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi. Egosentrizm negizida insonning o'z nuqtayi nazariga qarama-qarshi qarashlar mavjud bo'lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi. Shaxsda o'ziga haddan ziyod ishonch ustuvorligi

tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o'ziniki bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi [4]. Bu muammolarni hal qilish uchun ta'lim metodikasini takomillashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va xalq og'zaki ijodini o'quv dasturiga samarali kiritish zarur bo'ladi.

Agar ma'lumot tanqidiy fikrlash mezonlarga mos bo'lmasa, u o'z tarbiyaviy ma'nosini yo'qotadi. Ular qo'yidagi mezonlarda amalga oshiriladi. (1-rasm)



Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalar gina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muommoni vujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, o'quvchi haqiqatdan ham fikrlaydi» [5]. Demak, tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilarda baholash, bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik mazmunini ochib berish;
2. O'quv jarayonida xalq og'zaki ijodi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini baholash mezonlarini aniqlash; va ularning pedagogik usullari rivojlantirish;
3. Xalq og'zaki ijodi misolida o'quvchilarining tanqidiy tafakkurini samarali shakllantirish bo'yicha ish tizimini nazariy jihatdan asoslash va ularni eksperimental ravishda sinab ko'rish;
4. Olingan natijalarni hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning maqbul modeli variantini ishlab chiqish, asoslash va amaliyotga joriy etish;
5. Pedagogik jarayonda o'quvchilar ongining tanqidiyligi va o'zini tanqid qilishining roli va o'rnini tushunishga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «O'qish kitobi»da 52-55 sarlavhalarida [7:55, 58] G'aniy Johongirovning «Ko'k arg'umoq» ertagini olib misol qilaylik. Ertakda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha o'quvchilarga quyidagi savollarni berish imkoniyati mavjud.



Акти

Masalan: *Hikoyada «ko'k arg'imoq», «Tulpor» deb eshak ta'riflanadimi yoki o'tmi? Odamlar muallimning ustidan nima uchun kulishdi? Muallim jon o'tni qanday qilib tulpor qilib oldi? kabi savollar beriladi.*

Demak, biz o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini quyidagi usullarda ko'rib chiqish mumkin. (2-rasm)



Savol berish – Ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun “Nega?”, “Qanday?” kabi savollar berish.

Dalillarga tayanish – xulosalar subyektiv emas, faktlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Mantiqiy tahlil mavjudligi – fikrlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, xatoliklarni aniqlash.

Stereotiplardan qochish – oldindan shakllangan noto'g'ri tushunchalardan voz kechish.

Ochiq fikrlilik – yangi ma'lumot va qarashlarga tayyor bo'lish.

Muammoni tahlil qilish – Uning sabablarini va oqibatlarini o'rganish. **Ijobiy va salbiy tomonlarni baholash** – fikr yoki qarorning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli juda muhimdir. Biroq bu jarayonda bir nechta muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodining o'quv dasturiga qanday integratsiya qilinishi va uning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniq belgilash muhimdir. O'quvchilarga qanday materiallar taqdim etilishi, ularni qanday tanqidiy yondashuv bilan

ishlashlari kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar mavjud bo'lishi zarur.

2. O'qituvchilarning xalq og'zaki ijodini tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ishlatish uchun kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak. Ba'zi o'qituvchilar ushbu materiallardan qanday foydalanishni bilmasliklari mumkin, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Har bir bolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyati va qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilarning turli yosh guruhlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

4. Xalq og'zaki ijodining zamonaviy pedagogik maqsadlarga mos ravishda tayyorlangan materiallari yetishmasligi mumkin. O'quvchilarga qanday tarzda va qaysi darajada fikr yuritishni o'rgatadigan, ular uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan materiallarni yaratish zarur.

5. Xalq og'zaki ijodining madaniy kontekstini to'g'ri tushunmaslik va bu bilan bog'liq axloqiy qadriyatlarini hisobga olmaslik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodini ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va ularni axloqiy qadriyatlarga tayyorlashda samarali usul bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot ishimiz jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quv vazifalari tizimini qurishda quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

- fikrlash madaniyati va tanqidiy fikrlash madaniyatini ongli ravishda rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni ko'paytirish;
- o'quvchilarga dars jarayonida qarama-qarshiliklar, xatolar va kamchiliklarni bilish va ochib berishga yordam berish;
- konstruktiv tanqidni to'g'ri qabul qilishga va unga ishbilarmonlik bilan javob berishga o'rgatish;
- faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish zarur.
- o'quv materialining mazmuniga, dars jihozlariga, o'qitishning individual xususiyatlariga, o'quvchilarning bilim darajasi va o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab qo'llanish kerak.
- o'quvchilarning tanqidiy fikrlash fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlash zarurdir.

Adabiyotlar

- kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-onikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida
- uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-o'qituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.
- Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития: пособие для учителя. – Санкт-Петербург; Альянс «Дельта», 2003.
- «Piagets Stages of Cognitive Development. 9-may 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-aprel 2018.
- Дьюди Дж. Индивидуализация обучение школьников. – Чикаго: 1991.
- Toirova M.E. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. – Toshkent: «Novda Edutainment», 2023.
- O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: «Yangiyul plograph servis», 2020.

REZYUME. Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mavzusi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini o'rganadi.

РЕЗЮМЕ. Тема формирования навыков критического мышления младших школьников средствами устного народного творчества исследует значение устного народного творчества в развитии мыслительных способностей учащихся.

SUMMARY. The topic of the formation of critical thinking skills of younger schoolchildren by means of oral folk art explores the importance of oral folk art in the development of students' thinking abilities.

**TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
DASTURIY TA'MINOTNING TARKIBIY QISMLARI**

S.T.Seytmuratov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: dasturiy ta'minot, kreativ fikrlash, elektron darslik, samaradorlik, ilmiy yondashuv, motivatsiya, axborot texnologiyalari, interaktiv vositalar.

Ключевые слова: программное обеспечение, креативное мышление, электронный учебник, эффективность, научный подход, мотивация, информационные технологии, интерактивные инструменты.

Key words: software, creative thinking, electronic textbook, efficiency, scientific approach, motivation, information technology, interactive tools.

Kirish. Talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda dasturiy ta'minotini takomillashtirish orqali yangi fanlarni o'rganish va ijodiy tarzda tajriba orttirishga sharoit yaratadi. Bu jarayon talabalarining abstrakt fikrlash, algoritmik yondashuv, mantiqiy tahlil, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, shuningdek aqliy faoliyatining kengligi va chuqurligini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu fazilatlarining umumiyligi mantiqiy fikrlash uslubini yuzaga keltiradi va talabalarni ijodkorlikka intilib, kreativ salohiyatni oshirishga, kasbiy faoliyatning ilmiy tamoyillarini, atrof-muhit hamda o'zini ongli ravishda o'zlashtirish usullarini o'rganishga yordam beradi.

Bundan tashqari talabalarining kreativligini oshirish uchun dasturiy ta'minotni takomillashtirish maqsadlarini, oliy ta'limda fanlarni o'qitish natijalaridan biri sifatida belgilash, me'yoriy hujjatlar va ushbu kompetentlik tuzilishi asosida amalga oshirilishi lozim.

Bu borada O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ("O'zstandart") agentligining 2017-yil 10-noyabrda №05-896-sonli qarori "Elektron ta'lim" milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablar"ga [1] standarti ishlab chiqilgan. Ushbu standart yangi elektron axborot-ta'lim resurslari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish, elektron o'quv adabiyotlarni bosqichma-bosqich ta'lim amaliyotiga keng joriy etish, xalqaro tajribada keng qo'llanayotgan masofadan o'qitish usullarining samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim tizimida yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar o'rgatuvchi (gipermatn va giper murojaatga asoslangan, statistik va dinamik rasmlardan iborat), mashq qildiruvchi (xatolarni ko'rsatib beruvchi to'g'ri xulosaga olib keluvchi), nazorat qiluvchi (test orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi) tarkibiy qismlardan iborat [1].

Shuningdek, elektron qo'llanma shakllari va xususiyatlariga quyidagilar kiradi: o'quv materialini multimedia, ya'ni ma'lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi; turli o'quv adabiyotlari-darslik, lug'at, masalalar to'plami va amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari uchun tegishli barcha o'quv qo'llanmalarining bir joyda jamlangan holda ko'rinishi; o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'rtasida o'zaro bevosita aloqa o'rnatilishi; o'quvchining o'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha vazifalarning ma'lum qismini kompyuterli o'quv vositalari zimmasiga yuklatilishi; o'quvchi tomonidan qabul qilinadigan-maslahat, tushuntirish, ma'lumotni izlash bo'yicha savol-javob va

bilimni o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o'tish imkoniyati; kompyuter vizualizatsiyasi orqali o'rganilayotgan obyektning kompyuterdagi imitatsiya modellaridan foydalanishi; o'quv materialiga nisbatan yengil o'zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi; o'quv materialini yaratish arzonligi; o'quv faoliyatining oshirilishi; ta'limda masofadan o'qitish uslubini tashkil qilish imkoniyati; an'anaviy o'quv adabiyotlari bilan birgalikda kompleks foydalanish kabi xususiyatlari ta'kidlab ko'rsatilgan.

Muhokama. Elektron o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan tarkibiy usullari va format axborotning faylda taqdim etilish talablarini hisobga olgan holda biz talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mukammal dasturiy ta'minot ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislikning Davlat ta'lim standart; Davlat ta'lim standartiga mos ravishda yaratilgan namunaviy dastur; fanning maqsadi va vazifalarini, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunini, nazorat hamda kurs ishlarining mavzularini, masalalar, topshiriqlarini, yakuniy nazorat savollarini va fanning o'quv-metodik ta'minoti, mustaqil ishni tashkil etishga doir yo'riqnomani o'zida mujassamlashtirgan ishchi dastur; o'quv-uslubiy xarita va kalendar tematik rejalar; darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv materiallarining elektron versiyalari; mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar; nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarining metodik ta'minoti; fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Hozirgi ta'lim texnologiyalari tezkor taraqqiy etib, talabalarining kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, ta'lim tizimida o'quvchilar va talabalar orasida ijodkorlikni oshirish dasturiy ta'minot vositalari yordamida muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Ushbu dasturlar insonning ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun ilg'or texnologiyalar, sun'iy intellekt, vizualizatsiya va interaktiv o'quv jarayonlarini birlashtiradi.

Olimlarimizning fikricha, kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturiy ta'minot kreativ fikrlashni shakllantiradi, bo'lajak o'qituvchilarining mustaqil va fanlararo ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi. O'zbekistonda bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari, o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun dasturiy ta'minotini bosqichma-bosqich yaratishning umumiy ko'rinishini shakllantirishda modellashtirish

metodikasidan foydalanadi, ya'ni obyektlar va hodisalarni ularning ramziy tasvirlari, o'xshashliklari orqali o'rganish amalga oshiriladi [3].



1-rasm. Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotni yaratishga qaratilgan yondashuvlar va ta'lim mazmuniga ta'siri

Samaradorligini ta'minlovchi ilmiy yondashuv:

dasturiy ta'minot bo'lajak o'qituvchilarining "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiradi, bu ularga murakkab topshiriqlarni hamkorlikda yoki dastur yordamida mustaqil hal qilish imkoniyatini beradi. Vizual va interaktiv vositalar bilimni yaxshiroq anglash va xotirada uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi;

kreativ dasturlar talabalarining o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga ko'maklashadi, ularni mustaqil tarzda yangi g'oyalarni ilgari surish va sinab ko'rishga undaydi. Bunday yondashuv o'z navbatida, talabalarda mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda bilim egallash jarayonini samaraliroq qiladi;

tajriba asosida o'rganish modeli dasturlarni ta'lim jarayonida qo'llash real hayotdagi muammolarni yechish uchun amaliy bilimlar berishni ta'minlaydi. Talabalar tajribalarini simulyatsiya yordamida bajarar ekan, o'z bilganlarini nazariy tushunchalar bilan bog'laydi;

motivatsiya va qiziqishni oshirish kreativ dasturlar talabalarni qiziqarli va izchil ishlashga undovchi "oqim holati" ga olib keladi. Talabalar o'z yutuqlarini dastur orqali tezda boshlashi va mukofotlanishi natijasida jarayon davomida motivatsiya va qoniqish hissini saqlab qoladi.

O'qitish tizimiga qo'shgan hisssasi:

interaktivlikni kuchaytirish kreativ dasturiy ta'minot turli intellektual ko'nikmalarga ega o'quvchilarga moslashtirilishi mumkin. Masalan, vizual ta'lim uchun animatsiyalar, musiqiy o'rganish uchun tovushlarni qo'llash o'quv jarayonini diversifikatsiya qiladi;

dasturiy ta'minotlar talabalarining mukammal darajadagi aqliy malakalarini, shuningdek, tahlil qilish, baholash va kreativ fikrlarni shakllantirishni rag'batlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar yordamida nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga imkon beradi:

zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi, shuningdek, simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish yordamida, talabalarga qiyin masalalarni amaliy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu dasturlar laboratoriya tajribalari uchun o'ziga xos muqobil bo'lib, qimmat uskunalarsiz ham sifatli o'qitishni ta'minlaydi;

moslashuvchan ta'lim tizimi kreativ dasturlar talabalar ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yadi. Bu o'quv tizimining o'zgaruvchanlikka javob bera olish qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy yondashuvlardan kelib chiqadigan afzalliklar:

simulyatsiya va interaktiv vositalar orqali amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish talabalar nazariy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib, amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi;

dasturiy-ta'minot yordamida talabalarining individual yondashuvlari rivojlanadi hamda ular yangi g'oyalarni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ijodiy va kreativ fikrlashga ko'p vaqtlarini ajratishni ta'minlaydi;

hozirgi ta'lim standartlariga moslashish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol vositalarni o'quv jarayoniga joriy etish xalqaro ta'lim qoidalariga muvofiq rivojlanishga yordam beradi"[2].

Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot ta'lim tizimida o'qituvchilar va talabalar uchun samaradorlikni oshiradi. Bu ayniqsa, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kreativ kompetentlikni oshirish ta'lim jarayonining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini zamonaviy talabalar asosida tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat talabalarining ijodiy salohiyatini oshiradi, balki ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga olib chiqadi va ta'lim tizimini innovatsion rivojlanish sari yo'naltiradi.

Kreativ kompetentlikning ta'lim jarayoniga ta'siri:

Ijodiy tafakkur qobiliyatlarini shakllantirish: kreativ kompetentlikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilar uchun an'anaviy bo'lmagan fikrlash, muammolarga yangi qarashlar bilan yondashish va yangi g'oyalarni taklif etish imkonini yaratadi. Bu esa ularning kreativ fikrlashlarini shakllantirishga yordam beradi;

mustaqil ta'lim va mas'uliyatni shakllantirish: kreativ kompetentlikni shakllantirish natijasida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tarzda egallashni o'rganadilar, bu esa o'zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi. Talabalar faqat o'qituvchining ko'rsatmalariga emas, balki o'z izlanishlariga ham tayanishni o'rganadilar;

texnologiyalarni samarali qo'llash: yetuk axborot texnologiyalar interaktiv vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada maroqli hamda oson tushunarli qiladi. Simulyatsiyalar, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalar murakkab mavzularni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalari: talabalar turli fanlararo masalalarni kreativ yondashuv yordamida hal qilish orqali o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi;

xalqaro darajadagi tayyorgarlik: kreativ fikrlash global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar talabalariga javob bera oladigan mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur. Bu, o'z navbatida, talabalarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Kreativlikni rivojlantirishdagi dasturiy ta'minotning ta'lim sifati uchun afzalliklari:

innovatsion yondashuvlar: kreativlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va texnologik usullarni tatbiq qilish osonlashadi.

yangi pedagogik model: talaba markazli ta'lim modeli keng tarqaladi, bunda o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lib maydonga chiqadi.

o'zlashtirish samaradorligi: o'quv jarayonida yangi texnologiyalar va kreativ yondashuvlar qo'llanganda

bilimlarni tushunish va eslab qolish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi.

Natijalar. Kreativlikni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotlar foydalanuvchilarning tasavvurini kengaytirish yangi narsalarni yaratishga undash va ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, darslarida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi dasturiy vositalarning o'ziga xos xususiyatlari hozirgi ta'lim tizimining muhim qismiga aylanmoqda. Bunday dasturlar talabalar tafakkurni rivojlantirishda, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Ўзстандарт агентлигининг 2017-йил 10-ноябрдаги №05-896-сонли қарори. “Электрон таълим” миллий тизимига киритиладиган электрон методик комплекслар ва бошқа таълим ресурсларига ягона талаблар. О'zDSt 36.2030:2017.

2. Seytmuratov S.T. Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik zaruriyat. // Ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent: 2023, №9, 257-265-b.

3. Seytmuratov S.T. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. // «Raqamli iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali, – Toshkent: TDIU, 2024.

REZYUME. Maqolada talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotning tarkibiy qismlari, ularning hozirgi ta'lim tizimida tutgan o'rni va ahamiyati bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье будут рассмотрены программные компоненты развития креативной компетентности учащихся, их роль и значение в современной системе образования.

SUMMARY. The article riches the components of the software for the development of creative competency of students, their role and significance in the current educational system.

O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

A.Sultanova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma va malaka, metodik tavsiyalar, grammatik kategoriya, metodlar.

Ключевые слова: знания, умения и навыки, методические рекомендации, грамматическая категория, методы.

Key words: knowledge, skills, methodological recommendations, grammatical category, methods.

Kirish. O'quvchilarni qo'shimchalar imlosiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda birinchi navbatda unli, undosh, jarangli, jarangsiz kabi eng zarur terminlar bilan tanishtirish, ularga tayangan holda imloviy qoidalar ustida ishlash lozim. Dastlab morfologiyaga doir ayrim mavzular o'rganilmog'i, so'ngra imloviy qoidalariga ko'ra guruhlash mumkin bo'lgan qo'shimchalar yuzasidan umumlashtiruvchi mashqlar bajarilmog'i maqsadga muvofiqdir. Didaktik mashq turlari doirasida o'yinli usullardan, «aqliy hujum» usulidan, muammoli ta'lim usullaridan, mustaqil fikrlash asosida o'tkaziladigan nutqiy mashqlardan, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish ma'qul.

Adabiyotlar tahlil va metodlar. E.N.Solovova mashqlarni joylashtirish izchilligi haqida to'xtalib, avvalgi mashq keyingi mashqni bajarish uchun tayanch vazifasini o'tashi kerakligiga alohida urg'u beradi [2:59]. Bunday izchillikni kelishiklar yuzasidan tuziladigan mashq va topshiriqlarga nisbatan ham joriy etish lozim. Muayyan ketma-ketlikda hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar: ona tilidagi kelishiklarning nomlarini eslay olish, qo'shimchalarni sanab bera olish va imlosini izohlay bilish; kelishik qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qilish, farqlab qo'llay bilish, ayniqsa, **-ning** va **-ni** qo'shimchalarini o'z o'rnida ishlatish, yozma nutqda imloviy xatolarsiz yoza olish.

Natijalar. Bir grammatik kategoriyaga (masalan, kelishiklar) mansub grammatik vositalar o'rganib bo'lingach, ular ustidagi ishlar shu bilan to'xtab qolmaydi. Endi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda qo'shimchalarni, shuningdek, yordamchi so'zlarni bir-biridan farqlash, o'z o'rnida qo'llash bilan bog'liq ish turlaridan zarurlari bajariladi. Chunonchi:

1) berilgan qo'shimchalarni mansubligiga ko'ra guruhlariga ajratish;

2) shakldosh qo'shimchalarning qaysi guruhga mansubligini aytish;

3) qo'shimchalarni turlarga (so'z yasovchi qo'shimcha, shakl hosil qiluvchi qo'shimcha) ajratish;

4) grammatik ma'nosi bir xil grammatik vositalarni aytish;

5) qo'shimchalar orasidan qo'llanishi imlo qoidalari bilan bog'liq qo'shimchalarni topish va tushuntirish;

6) bekatlar bo'yicha sayohatda qatnashish;

7) «Grammatik vositalar bilimdoni» bellashuvida ishtirok etish;

8) ma'nodosh grammatik vositalarni (*borsa kerak – borar; kelajakka – kelajak sari* kabi) aniqlash;

9) ma'nodosh grammatik vositalarning (*borsa kerak – borar; kelajakka – kelajak sari* kabi) so'zlashuv yoki kitobiy uslubga mansubligini izohlash;

10) testlar bajarish.

Testlardan mavzuning qay darajada o'zlashganligini nazorat qilish uchun ham foydalaniladi. Masalan:

Test. Qaysi qatorda faqat shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan?

1) -chi, -sh (-ish), -gan, -li;

2) -cha, -chak, -tir, -lar;

3) -iy (-viy), -gi (-ki, -qi), -siz, -zor.

Test. O'rttirma nisbat qo'shimchalari qaysi qatorda berilgan?

1) -l (-il), -n (-in);

2) -sh (-ish);

3) -tir, -dir, -t, -kaz.

Nazorat sifatida savol va topshiriqlarga ham murojaat etiladi:

Savol va topshiriqlar. Fe'ning zamon qo'shimchalarini ayting va imlosini tushuntiring. Sifat va ravishlarda darajalarni ayting. Fe'ning zamon qo'shimchalaridan qaysilari *edi* fe'li bilan qo'shib aytilishi va yozilishi mumkin?

Yuqoridagi kabi topshiriqlar asosida grammatik vositalarni o'rgatishga doir mashqlar ishlab chiqiladi. Ular yordamida tegishli bilim, ko'nikma va malakalar ustida uzluksizlik va uzviylik asosida ish olib borish, nutqiy kompetensiyalarini o'stirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Qoidalarni mustahkamlashga qaratilgan quyidagi kabi amaliy mashqlar bajariladi. Chunonchi:

1) berilgan misollar asosida xulosa chiqarish;

2) qoidaga (mavzuning sarlavhasiga) mos misollar keltirish;

3) berilgan til hodisalarining ma'nosi va qo'llanishiga doir qoidalarni eslash;

4) yozma ishda yo'l qo'yilgan xatoni o'tilgan qoida asosida tuzatish;

5) «Mavzular bilimdoni» bellashuvini o'tkazish.

Qoida. Kishilik olmoshlari (*men, sen, u, biz, siz, ular*) matnda, asosan, ikki xil uslubiy qoidaga amal qilib ishlatiladi:

1) So'z takroridan qochish uchun birinchi gapdagi ot o'rnida ikkinchi gapda *u, ular* kishilik olmoshlari qo'llanadi: *Hokim yigitlarni darhol zindondan chiqarib o'z huzuriga keltirdi. U ko'p iltifotlar qilib, yoshlarning ko'ngillarini ko'tardi.*

2) So'z takroriga yo'l qo'ymaslik, hadeb «men»lamaslik uchun ikkinchi gapda ega vazifasidagi *men, biz* kishilik olmoshlari tushirib qoldiriladi. Badantarbiya qildim. So'ngra choy ichdim. Soat sakkizda uydan chiqdik. Bekatga bordik.

Bu kabi qoidalar va ularni mustahkamlashga doir tavsiya etiladigan mashqlar sinflar va darslar bo'yicha ma'lum izchillikda, uzluksizlik va uzviylik prinsiplariga amal qilgan holda taqsimlab chiqiladi. Ular o'quvchilarning so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish va yozishga, so'z va so'z shakllarini, so'z birikmalarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish uchun yordam beradi.

Mashqlarda dastlab qo'shimchalar bilan tanishtirish, ularni so'z shaklidan ajratish, so'ng talaffuzi va imlosini izohlash, qo'llanishini tushuntirish, so'zni morfologik jihatdan to'g'ri shakllantirish, mantiqiy suhbat asosida qo'shimchalarning imloviy variantlari bor-yo'qligini so'rab bilish, nihoyat, ulardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalanish kabi izchillikda darajalanadi.

O'zbek tilini o'rganish jarayoni, bir tomondan, o'quvchilarning tilga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, ikkinchi tomondan, ularning nutqiy kompetensiyalarini amaliyotida qo'llashga yo'naltirilgan.

O'zbek tili darslarida, asosan, fonetika (to'g'ri talaffuz), leksikologiya, so'z tarkibi, morfologiya (morfologik shakllar) o'rganiladigan matn ustidagi ishlarga katta e'tibor qaratiladi. O'zbek tilining grammatik materiallarini o'rganish ishini vaqti-vaqti bilan matn vositasida davom ettirish, bu ishlarni quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi:

1) darsda o'rganilgan til materialini mustahkamlashda;

2) ilgari o'rganilgan til materialini takrorlash, shu jumladan talaffuz va imlo, punktuatsiya ustida ishlash maqsadida;

3) o'zbek adabiy tilini shevaga xos shakllar bilan taqqoslab o'rganishda;

4) og'zaki nutqni kitobiy nutq bilan chog'ishtirib rivojlantirishda;

5) badiiy asarlardan olingan parchalar asosida ona tilidagi so'z ishlatish mahorati va ritorika ustida ishlashda;

6) ona tili darslarida adabiy materiallarni o'rganishda;

7) tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda.

Har gal so'z turkumlari, ularning ma'noviy guruhlari, grammatik vositalar bilan tanishganda, matndan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni morfologik-sintaktik tahlil qildirish zarur. Masalan, olmoshlarning ma'noviy guruhlari (kishilik olmoshlari, so'roq olmoshlari, o'zlik olmoshi va b.)ni kuzatish uchun quyidagi matn taqdim etiladi:


Kechqurun bizning yotoqxonamizga tarbiyachi opa kelib suhbat o'tkazdi. U shu so'zni aytib o'zini qarshisidagi darvoza yo'lagiga oldi. Oradan o'n kun o'tgandan keyin ularning qamalganini eshitdi. Senlardan ham ahillik, do'stlik zo'r. Ular bor joyda senlar hech narsa emassanlar. (X.To'xtaboyev "Besh bolali yigit").

Muhokama. O'quvchilar gapni o'qiydilar, mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qiladilar. So'ngra matndan olmoshlarni topadilar, ularning qaysi ma'noviy guruhga mansubligini aniqlaydilar, shakliga, ayniqsa, kishilik olmoshining ko'plik son shaklida (-lar qo'shimchasi bilan) qo'llanishiga e'tibor qaratadilar. So'roq so'zlarga tayangan holda ushbu olmoshlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadilar (*bizlarning* – aniqlovchi, *kimimiz* – ega, *senlardan* – to'ldiruvchi, *ular* – ega va h.k.). Matndagi *ular* olmoshi ikki mustaqil gapni bog'lash uchun xizmat qilmoqda: *Senlardan ham ahillik, do'stlik zo'r. Ular bor joyda senlar hech narsa emassanlar. Ular* olmoshi birinchi gapdagi *ahillik, do'stlik* otlarini almashtirib kelmoqda.

Soat metodida o'quvchilarni ikkita jamoaga "Soat tayoqchasi" va "Daqiqa tayoqchasi" ga ajratamiz. Ular oldindan tayyorlab qo'yilgan mavzuga oid kichik-kichik bir-birini takrorlamaydigan ma'lumotlardan iborat tarqatma qog'ozlarni beramiz va ularni xuddi soat shaklida aylana qilib qo'yib olamiz, ya'ni daqiqa jamoasi ichki aylanadan, soat jamoasi tashqi aylanadan joy olishadi. O'qituvchining har bir ogohlantirishidan keyin bir - biriga ro'parama-ro'para turgan o'quvchilar o'z ma'lumotlarini sheriklariga tushuntirib beradi va bu jarayon dastlabki o'quvchiga qayta uchragunga qadar davom etadi, soat tayoqchalari o'z joyida turadi, daqiqa tayoqchalari esa soat millari kabi aylanishadi. Mana shunday savol-javoblar, interaktiv metodlar orqali mavzu mustahkamlanadi hamda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari rivojlanishiga yordam beradi.

Quyidagi interaktiv metodlar orqali bolalarga grammatik shakllarni o'zbek va qoraqalpoq tillarida farqlab o'rgatish mumkin. Shuningdek, mana shu grammatik vositalar mavjud bo'lgan so'zlarni topish, so'zlardan gaplar tuzish kabi topshiriqlarni murakkablashtirib borish mumkin. Bu kabi metodlar orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligi oshadi.

Venn diagrammasi



Xulosa. Shunday qilib, darsdan darsga darslikda berilgan yoki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olib tanlangan matn asosida o'zbek tilining til hodisalarini majmuaviy o'rganish bo'yicha maqsad sari yo'naltirilgan ishlar bajariladi. Bu ishlar, asosan, nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, muloqot odobini egallashga qaratiladi. Bunda quyidagi interaktiv metodlardan foydalanish mumkin.

Xullas, o'zbek tili darslarida izchillik, uzluksizlik va uzviylik asosida o'rganiladigan grammatik materiallar bir tizimga birlashuvchi yuqoridagi kabi topshiriq va metodlar yordamida o'quvchilar nutqiga singdiriladi, shu orqali nutq va tafakkurning o'sishi ta'minlanadi. O'zbek tili darslarida izchillik, uzluksizlik va uzviylik asosida o'rganiladigan grammatik materiallar bir tizimga birlashuvchi mashqlar yordamida o'quvchilar nutqiga singdiriladi, shu orqali nutq va tafakkurning o'sishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar

1. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: «Fan», 1995.
2. Соловова Э.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций: Пособие для студентов педвузов и учителей. 2-э изд. – Москва: «Просвещение», 2003.
3. Yusupova Sh.J. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish): Ped.fan.nomz ... diss. – Toshkent: 1998. 26-b.
4. Qurbonova X. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvo-metodik asoslari: Ped. fan. nomz... diss. avtoreferati. – Toshkent: 2005. 24-b.
5. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
6. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1992.

REZYUME. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zbek tili darslarida grammatik materiallarni o'qitish va bunda interaktiv usullardan foydalanish afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются преимущества преподавания грамматического материала на уроках узбекского языка в средних общеобразовательных школах и использования при этом интерактивных методов.

SUMMARY. The article reflects on the advantages of general secondary education schools teaching grammatical materials in Uzbek language lessons and using interactive methods in this.

ATTITUDES TO TRANSFORMING FROM TEXTBOOKS TO TECHNOLOGY IN ESP CLASSES

A.U.Tajieva – candidate of pedagogical sciences, dotsent

J.A.Allamuratova – master student

Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: ESP, raqamli vositalar, darslikka asoslangan metodologiya, haqiqiy materiallar, transformatsiya, e-learning, aralash ta'lim.

Ключевые слова: ESP, цифровые инструменты, методология на основе учебников, аутентичные материалы, трансформация, электронное обучение, смешанное обучение.

Key words: ESP, digital tools, textbook-based methodology, authentic materials, transformation, e-learning, blended-learning.

Introduction. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for the further development of higher education" radically changes the content of personnel training in accordance with the priority tasks of fundamental improvement of the higher education system, socio-economic development of the country. It is designed to create the necessary conditions for the training of highly qualified specialists in accordance with international standards [1:1]. New approaches in the system of education also influenced on the learning and teaching of foreign languages, as language is the major factor of person's development.

Tarqatpa materiallar. Dúnyada úplep shertiletuǵın saz ásbaplarınń túri kóp. Simfoniyalıq orkestrge kirgizilgen sonday saz ásbapları eki túrge – aǵash hám mis úpleme saz ásbapları bolıp bólinedi.

Aǵashtan jasalǵan úpleme saz ásbapları toparına fleyta, goboylar, klarnet hám fagotlar kiredi. Bul ásbaplarda orınlanatuǵın muzıka partituranıń eń joqarǵı nota jollarına jazıladı. Mis úpleme ásbaplar toparına valtornalar, trubalar, trombonlar hám tuba kiredi [3:24].

1-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: fleyta.

Fleyta – dúnyanıń eń áyyemgi saz ásbaplarınan biri bolıp, áyyemgi dáwirlerde, Mısır, Greciya hám Rimde belgili bolǵan. Bul ápiwayı muzıkalıq ásbap fleyta ásbabınıń áyyemgi atası bolsa kerek. Eń sońǵı márte fleyta 1832-1847-jıllar aralıǵında sheber nemec saz ásbaplar ustası Teobald Byom tárepinen jetilistirilen. XVIII ásirdeń aqırınan baslap simfoniyalıq orkestr quramına kirgen. Orkestrdiń aǵashtan jasalǵan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

2-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: goboy

Goboy fleyta menen óziniń payda bolıwınıń áyyemgiligi menen básekilese aladı. Ol óziniń shejiresin áyyemgi sırnaydan baslaydı. Evropaǵa goboydıń ata-babaları Jaqın Shıǵıstan kelgen. Goboy XVII ásirdeń ortalarında Franciyada payda bolǵan. Lyulli birinshi márte 1657-jılı óziniń «Úlken Amur» opera-baletinde qollanǵan. Orkestrdiń aǵashtan jasalǵan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

3-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: klarnet

Klarnet (latinsha *klarino* - «taza», «ashıq») aǵashtan jasalǵan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi. Ol XVII - XVIII ásirde payda bolǵan. Sheber francuz saz asbaplar ustası Iogan Kristof Denner tárepinen jasalǵan. 1755-jılı Yan Stamictiń orkestr ushın jazılǵan «Klarnet hám kontrabas simfoniyası» simfoniyalıq muzıkasında qollanıldı.

4-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: fagot

Fagot (italyansha *fagotto* - «túyin», «baylam», «buwat») aǵashtan jasalǵan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi. Fagotdıń ata-tegi eski bas sızıǵı – bombada esaplanadı. Onıń ornına kelgen fagot XVI ásirdeń birinshi yarımında kanonik Afrano deli Albonezi tárepinen soǵılǵan. XVII ásirde simfoniyalıq orkestrge, XVIII ásirde bolsa áskeriy orkestrge kirgen. Fagotdıń tuwıslarları goboy, ingliz rogi(múyizi).

5-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: valtorna

Zamanagóy valtornanıń arǵı atası *rog* (múyiz) edi. Áyyemgi dáwirlerden baslap, orta ásirlerde hám onnan keyingi dáwirlerde – XVIII ásir baslarına shekem - mergenlik, jarıslar hám saltanatlı saray máresimlerinde jańlaǵan. Ásbaptıń atı valtornanıń ótmishtegi wazıypasın esletedi: bul sóz nemecshe «Waldhorn» - «toǵay múyizi» sózinen kelip shıqqan. Birinshe márte 1664-jılı Jan Batist Lyulli tárepinen orkestrde qollanılgan.

6-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: truba

Eń áyyemgi saz ásbaplarınń biri. Bizdiń e.sh. 3600 jıl aldın áyyemgi Egipette, áyyemgi Greciyada, áyyemgi Qıtayda áskeriy saz ásbabı retinde qollanılgan. Birinshi truba aǵa-ini Mannesmanlar tárepinen jasalǵan. Shama menen XVII ásirde baslap orkestr quramına kirgen. Orkestrdiń mistan jasalǵan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

7-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: trombon

Trombon óz atamasın trubanıń italyan tilindegi tromba atamasınan úlkeytiwshı «one» qosımtası menen alıǵan: trombone sózbe-sóz «trubalar» degen mánisti bildiredi. Trombon XV ásirde payda bolǵan degen boljawlar bar.

XVII ásirge shekem ol «saqueboute» (francuzsha) yamasa «sackbut» (inglizshe) dep atalgan. Trombon XIX ásirde K.Zatler jetilistirgennen soń keń tarqaldi. Ol mistan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

8-topar talabalarına beriletuǵın tapsırma: tuba

Tuba – ádewir jas ásbap. 1835-jılı muzikalıq saz ásbapların jasawshı sheber nemec ustaları Vilgelm Viprixt hám Karl Moric tárepinen jasalgan. Dáslepki tubalar jetiliken bolmaǵan hám tek áskeriy jáne baǵ orkestrlerinde qollanılǵan. Franciyada saz ásbapları ustası Adolf Saks qolına túskenen keyin ǵana tuba simfoniyalıq orkestrdiń joqarı talapların qanaatlandıra basladı. Ol birinshi márte 1843-jılı simfoniyalıq orkestrde Rixard Vagnerdiń «Ushar gollandec» operasında qollanılǵan.

«Erudit» usılı. Ketekshede jasırılǵan saásbabınıń atın tabıw kerek. Hár bir tapsırmanıń durıs juwabı ushın 1 ball beriledi, orınlaw waqıtı – 10 minut.

Sońǵı márte 1832-1847-jıllar aralıǵında sheber nemec saz ásbaplar ustası Teobald Byom tárepinen jetilistirilen bolıp, orkestrdiń aǵashan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

		E	A
--	--	---	---

1. Bul saz ásbaptı francuz kompozitori Jan Batist Lyulli birinshi márte 1657-jılı óziniń «Úlken Amur» opera-baletinde qollanǵan. Aǵashan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

	O		
--	---	--	--

2. Latınshadan awdarması - «taza», «ashıq» degen mánisti bildiredi. Sheber francuz saz asbaplar ustası Iogan Kristof Denner tárepinen jasalgan orkestrdiń aǵash demli saz ásbabı.

	A	N	
--	---	---	--

3. Italyansha – «túyin», «baylam», «buwat» degen mánisti bildirip, aǵashan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi. Onıń tuwıslasları goboy, ingliz rogi(múyizi).

		G	
--	--	---	--

4. Nemecshe «toǵay rogi» degen mánisti bildirip, mistan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi. Birinshi márte 1664-jılı Jan Batist Lyulli tárepinen orkestrde qollanılǵan.

	A		O
--	---	--	---

5. Ayyemgi Egipette áskeriy saz ásbabı retinde qollanılǵan. Aǵa-ini Mannesmanlar tárepinen jasalgan bolıp, orkestrdiń mistan jasalgan úplep shertetuǵın saz ásbapları qatarına kiredi.

	U		
--	---	--	--

6. Óz atamasın trubanıń italyan tilindegi tromba atamasınan úlkeytiwshı «one» qosımtası menen alingan: trombone sózbe-sóz «trubalar» mánisti ańlatıp, úlken truba degendi bildiredi.

	R		B
--	---	--	---

7. Sheber nemec ustaları nemec ustaları Vilgelm Viprixt hám Karl Moric tárepinen jasalgan. Ol birinshi márte simfoniyalıq orkestrde Rixard Vagnerdiń «Ushar gollandec» operasında qollanılǵan.

	U		
--	---	--	--

Juwapları: 1. FLEYTA; 2. GOBOY; 3. KLARNET; 4. FAGOT; 5. VALTORNA; 6. TRUBA; 7. TROMBON; 8. TUBA.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, «Simfoniyalıq orkestr» temasın úyreniwde sabaq barısında joqarıda kórsetilgen interaktiv metodlardı qollanıw oqıwshı menen oqıtıwshınıń birgelikte islesiwın, oqıwshılardıń sabaqqa aktiv qatnasıwın hám jaqsı nátiyjelerge erisiwdi támiyinleydi.

Ádebiyatlar

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – Москва: «Знание», 1989.
2. Деева Е.М. Применение современных интерактивных методов обучения в вузе. – Ульяновск: УЛГТУ, 2015.
3. Mansurov A., Karimova D., Kamalova G. «Muzıka» 5-klass ushın sabaqlıq. – Tashkent: «Ġafur Ġulam», 2020.
3. Yuldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2009.
4. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holikova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
5. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – Toshkent: «Iqtisodiyot», 2009.
6. Штейнпресс Б., Ямпольский И. Музыка хэўескериниң қысқаша сөзлиги. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1983.
7. www.pedsovet.su
8. www.uchportal.ru

REZYUME. Maqolada umumta’lim maktablarida «Musiqa savodxonligi» fanini o’qitishda interaktiv uslublardan foydalanish haqida so’z etiladi. Tadqiqot ob’ekti sifatida «Simfonik orkestr» mavzusi tanlangan. «Simfonik orkestr» mavzusini o’rganishda «Passport», «Zig-zag», «Erudit» interaktiv uslublardan foydalanilgan.

РЕЗИОМЕ. В статье говорится об использовании интерактивных методов в обучении предмета музыки в общеобразовательных школах. В качестве объекта исследования была выбрана тема «Симфонический оркестр». При изучении темы использованы интерактивные методы: «Паспорт», «Зиг-заг», «Эрудит».

SUMMARY. This article discusses the use of interactive methods in teaching music in comprehensive schools. The topic of "Symphony Orchestra" was chosen as the object of study. The following interactive methods were used: "Passport," "Zig-Zag," and "Scrabble."

**MAKTAB KIMYO KURSI UCHUN DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANIB
“KIMYOVIY REAKSIYANING ISSIQLIK EFFEKTI YONISH”**

MAVZUSINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

M.B.Ajjeva – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D.Q.Sultonov – assistent o‘qituvchi

U.R.Kabilova – magistrant

G.Sultanova – talaba

B.A.Ajjeva – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti




Tayanch so‘zlar: kimyo, didaktika, kimyoviy reaksiya, yonish, ekzotermiya, endotermiya, formula, kislorod, modda, kimyoviy tenglama.

Ключевые слова: химия, дидактика, химическая реакция, горение, экзотермия, эндотермия, формула, кислород, вещество, химическое уравнение.

Key words: Chemistry, didactics, chemical reaction, combustion, exothermy, endothermy, formula, oxygen, substance, chemical equation.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion o‘zgarishlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta’lim sifat va samaradorligini oshirish yo‘lida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy hamda yetrli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o‘quv yurtlari rahbarlari va professor-o‘qituvchilariga ham o‘ziga xos kata mas’uliyat yuklaydi. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talablariga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g‘oyasini amalga oshiradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida kata islohotlar amalga oshirilmogda [1].

Muhokama va natijalar. “Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti” mavzusini o‘tishdan oldin talabalar oksidlanish reaksiyalari bilan tanishdilar (esda tutingki, bunday reaksiyalar moddalarning kislorod bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonidir). Masalan:



Bu reaksiyalar qanday umumiylikka ega?


Birinchidan, ko‘p hollarda mahsulotlar oksidlardir va faqat ba’zi reaksiyalarda, maxsus sharoitlarda, oksid bilan birga oddiy modda ham hosil bo‘ladi.

Ikkinchidan, oksidlanish reaksiyalarining borishini kuzatib, ularning barchasi issiqlik chiqishi bilan birga ekanligini ko‘rish mumkin.


Issiqlik chiqaradigan reaksiyalar ekzotermik deyiladi.

Issiqlikni yutadigan kislorod ishtirokidagi reaksiyalar ham mumkin, ammo bu juda kam uchraydi. Mana bir nechta misollar:

1. Ozonning hosil bo‘lishi




2. Juda yuqori haroratlarda azotning kislorod bilan o‘zaro ta’siri:




Issiqlikni yutish reaksiyalari endotermik deb ataladi.

Reaksiyada chiqarilgan yoki yutilgan issiqlik miqdori termal effekt deb ataladi. Bu ta’sir issiqlik birliklarida - joule (J) yoki kilojoule (kJ) bilan ifodalanadi. Uni reaksiya tenglamasiga kiritish mumkin:



Ekzotermik reaksiyalar



Endotermik reaksiyalar


Bu tenglamalarning birinchisida 394 kJ qiymati 1 mol S ni 1 mol O₂ bilan yondirganda 1 mol CO₂ hosil bo‘lishini va 394 kJ issiqlik ajralib chiqishini bildiradi. Uchinchi reaksiyada 1 mol N₂ 1 mol O₂ bilan o‘zaro ta’sirlashganda 2 mol NO hosil bo‘ladi va 180 kJ issiqlik yutiladi [2].

Issiqlik effektini ko‘rsatadigan reaksiya tenglamalari termokimyoviy deb ataladi.

Shubhasiz, termal effektning kattaligi reaktivning miqdori bilan proporsionaldir. Shuning uchun jarayonlarning issiqlik ta’sirini bilish kimyoda miqdoriy hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi [3].

Misol tariqasida quyidagi masalani olaylik: hajmi 150 m³ bo‘lgan xonada havo haroratini 1°C ga oshirish uchun qancha metanni (massa bo‘yicha) yoqish kerakligini aniqlang, agar buning uchun taxminan 200 kJ issiqlik kerak bo‘lsa.


Yechim:



$$X = 200(\text{kJ}) * 16 (\text{gr}) / 803 (\text{kJ}) = 4\text{gr}$$

Ko‘pgina oziq-ovqat qadoqlarida uning energiya qiymati yoki kaloriya tarkibi ko‘rsatilgan. Bu qiymat tananing mahsulotni iste’mol qilishdan oladigan energiya miqdorini ifodalaydi. Ishlatilgan energiya birligi kaloriya (kal), 1 kal = 4,2 J.

Energiya oziq-ovqat bilan yutilgan moddalarning oksidlanishi orqali chiqariladi. Masalan, shakarning oksidlanishi quyidagi termokimyoviy tenglama bilan tavsiflanadi:



Saxarozaning molekulyar og‘irligi 337 ga teng.

Shakarning kaloriya qiymatini hisoblash:

$$5654 / 337 = 16,7 \text{ kJ/g} [4].$$

Yuqoridagi material asosida o‘quvchilarda quyidagi kimyoviy bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi: ekzotermik va endotermik kimyoviy reaksiyalar haqida tushunchalar, kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti, termokimyoviy tenglamalar tuza bilish va alanga tuzilishini o‘rganish bo‘yicha amaliy ishlar ko‘nikmalari takomillashadi.

Buning uchun quyidagi jihozlar kerak bo‘ladi: "Olovli tuzilma" stoli, stakanlar, rezina uchlari bo‘lgan shisha tayoqchalar, gugurt, chinni stakanlar, shisha naychalar, tigel qisqichlari, parchalar, spirtli chiroq va termometrlar.

Shuningdek, sizga quyidagi moddalar va materiallar kerak bo‘ladi: ohak suvi, sham, konsentrlangan sulfat kislota va qattiq ammiakli selitra.

Dars tartibi:

Dars "Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti. Yonish" mavzusidagi to'liq metrajli suhbat bilan boshlanadi. So'ngra barcha talabalar kartochkalar yordamida mustaqil ishlarni bajaradilar.

Savollar va topshiriqlar:

- Kislorod olishning sanoat usulini ko'rsating:
 - kaliy permanganatning parchalanishi
 - simob oksidining parchalanishi
 - suyuq havodan
 - fotosintez
 - Tibbiyotda kislorodning qanday xossasidan foydalaniladi?
 - Suvni parchalab kislorod hosil qilish reaksiya tenglamasini yozing.
 - Kislorodning qanday xossasi kislorodli suyuqliklardan foydalanish uchun ishlatiladi?
 - Suv, kaliy permanganat va kaliy xloratdan kislorod olish mumkinmi?
 - Kislorod qanday jarayonlarda ishtirok etadi? Javobingizni reaksiya tenglamasi bilan tasdiqlang.
 - Quyidagi usullardan qaysi biri sanoatda kislorod olinadi?
 - $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$
 - $2\text{KMnO}_4 = \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
 - $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$
 - Metallarni payvandlashda kislorodning qanday xossasidan foydalaniladi?
 - Kislorodni simob oksidini parchalash orqali olish mumkin. Ushbu moddaning parchalanish reaksiya tenglamasini yozing.
 - Metallarni kesish uchun kislorodning qanday xossasidan foydalaniladi?
 - Reaksiya sxemasini to'ldiring.
 $2\text{KMnO}_4 = \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{manganets oksidi} + ?$
 - Qaysi jarayonlar natijasida kislorod hosil bo'ladi?
 - nafas olish
 - fermentatsiya
 - chirish
 - fotosintez
 - Ultrabinafsha nurlar ta'sirida atmosfera kislorodi bilan nima sodir bo'ladi? Reaksiya tenglamasini yozing.
 - Reaksiya sxemasini to'ldiring.
 O_3 ultrabinafsha nurlanishi ?+?
 - Suvni ozonlash uchun ozonning qanday xususiyatidan foydalaniladi?
 - Jarayonni tushuntiring.
 2O_3 ultrabinafsha nurlanishi 3O_2
 - Qaysi modda-kislorod yoki ozon kuchliroq oksidlovchi xususiyatga ega? Nega?
 - Ozon bakteritsid xususiyatiga ega. Buning uchun ozonning qanday kimyoviy xossasidan foydalaniladi? Reaksiya tenglamasini yozing.
 - Nima uchun ozon katta dozalarda zahar hisoblanadi?
 - Xona haroratida moddalar ozon bilan o'zaro ta'sirlashganda, reaksiya mahsulotlaridan biri kisloroddir. Ozonning kumush bilan reaksiyasi tenglamasini yozing, natijada kumush noodatii II valentlikni namoyon qiladi.
- O'qituvchi yangi materialni mavzu bilan tanishtirishdan boshlaydi. U talabalardan yonish reaksiyalariga misollar keltirishni so'raydi. Sinf bu tez sodir bo'ladigan va issiqlikni chiqaradigan oksidlanish reaksiyalari degan xulosaga keladi [5].

O'qituvchi ekzotermik kimyoviy reaksiyalar – issiqlik ajralib chiqishi bilan kechadigan reaksiyalar tushunchasini belgilaydi va tajribani ko'rsatadi: sulfat kislotani suvda issiqlik bilan eritish. Uning ta'kidlashicha, yonish reaksiyalari issiqlikni chiqaradigan yagona reaksiya emas.

O'qituvchi eksperimentni ko'rsatadi - ammoniy selitrani issiqlik yutilishi bilan suvda eritib, kimyoviy reaksiyalar issiqlikning yutilishi bilan birga bo'lishi mumkinligini aniqlaydi.

Keyin u endotermik kimyoviy reaksiyalar – issiqlikning yutilishi bilan kechadigan reaksiyalar tushunchasini shakllantiradi.

Har qanday kimyoviy reaksiya termal effekt bilan birga keladi, ya'ni u ekzotermik yoki endotermikdir.

Kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti tushunchasi kiritiladi. Bu reaksiyalarda ajralib chiqadigan yoki yutilgan issiqlik miqdori: issiqlik effekti Q harfi bilan belgilanadi. O'quvchilar issiqlik o'lchov birliklarini (J, kJ) eslashadi.

O'qituvchi o'quvchilarni reaksiya issiqligini ko'rsatuvchi kimyoviy reaksiya tenglamasi bilan tanishtiradi. Reaksiya issiqligining belgisiga (+ yoki -) alohida e'tibor beriladi.

"Termokimyoviy tenglama" atamasining ta'rifini tuzadi – issiqlik effektini aniqlaydigan reaksiya tenglamasi. Yangi materialni umumlashtirib, so'raydi: "Rasmdagi tasvir dars mavzusi bilan qanday bog'liq?" Javob: "Bu odamlar tomonidan amalga oshirilgan birinchi yonish reaksiyasi."



Shuningdek, mavzuni mustahkamlash uchun olov tuzilishini o'rganish bo'yicha amaliy ishlar taklif etiladi.

Uskunalar: gugurt, uchi tortilgan shisha naycha, chinni buyum, tigol qisqichlari.

Materiallar: kerosin sham, mash'al, ohak suvi.

1-vazifa: Shamni yoqing va olovning ko'rinishini tekshiring.

Olovning geterogenligiga e'tibor bering: uning ichida uchta zonani ajratish mumkin: havo bilan aralashirilgan yonuvchan moddaning bug'lari - kerosinni o'z ichiga olgan ichki (quyuqroq) zona; o'rta (eng yorqin) zona, unda yuqori


harorat ta'sirida uglerod o'z ichiga olgan birikmalarning parchalanishi sodir bo'ladi va ko'mir zarralari porlaydi, yorug'lik chiqaradi; va uglerod oksidi va suv hosil qiluvchi parchalanish mahsulotlarining to'liq yonishi sodir bo'lgan tashqi (eng engil) zona.

Vazifa 2. Sham alangasining ichki qismini ko'rib chiqing.

Olovning ichki qismini tekshirganda, shisha naychani uchini 45-50° burchak ostida kiritish uchun tigel qisqichlaridan foydalaning. Naychani boshqa uchiga yonayotgan mash'alni ushlab turing. Nimani kuzatasiz?


Eng yorqin markaziy olov hududini o'rganish uchun unga qisqacha (-2 s) sovuq obyektini, masalan, chinni idishni kiriting. Siz nimani kashf qilasiz?

Tashqi olov hududining tarkibini tekshirish uchun unga ohak suviga namlangan teskari stakanni 2-3 soniya davomida kiriting va olovni stakaning o'rtasiga keltiring. Nimani kuzatasiz?



Xulosa: kerosin shamining alangasi dan iborat qismlar.




Olovning eng issiq qismi ... bo'lib, shuning uchun moddalar sxema bo'yicha reaksiya sodir bo'ladigan olovning ... qismida qizdirilishi kerak.



Savol va topshiriqlar.

1. Nima uchun ko'mir alangasiz yonadi?
2. Olovning qaysi qismida moddalar qizdirilishi kerak?
3. Nima uchun ortiqcha havo (kislorod) bo'lsa, olov yonmaydi?

4. Reaksiya tenglamalarini to'ldiring:



Xulosa. Xuddi shu topshiriqni bajargan talabalar bir-birlarining ishlarini tekshiradilar. O'qituvchi eng ko'p uchraydigan xatolarni ta'kidlaydi (faqat topshiriqni bajargan talabalarga baho qo'yadi).

O'qituvchi darsdan so'ng ushbu dars uchun uy vazifasini tekshiradi va baholaydi. O'quvchilarda kimyoviy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi: ekzotermik va endotermik kimyoviy reaksiyalar haqida tushunchalar, kimyoviy reaksiyaning issiqlik effekti, termokimyoviy tenglamalar tuza bilish va alanga tuzilishini o'rganish bo'yicha amaliy ishlar ko'nikmalari takomillashadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-sonli Qarori.
2. Asqarov I.R., G'opirov K., To'xtaboyev N.X. Kimyo – 8. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: «Yangiyo'l poligraf servisi», 2019.
3. Суворовцева Р.П., Виноградова М.И. «Химия» Поурочные разработки с дидактическим материалом. – Москва: «Дрофа», 2004.
4. Гузья Л.С., Сорокина В.В., Суворовцева Р.П. «Химия 8 класс». – Москва: «Дрофа», 2003.
5. Ajieva M.B., Artiqov M.B., Bekimbetova G.N., Umrbekova M.U. 8-klass ximiyasini o'qitish metodikasi. – Nökis: NMPI baspaxanası, 2022.
6. Alimova F.A., Ajieva M.B., Dauekееva G.U., Begmanova G.E., Naurizbayeva T.O. Ximiyani o'qitishda zamanag'oy texnologiyalar. – Nukus: «Golden Print», 2024.

REZYUME. Maqolada keltirilgan ma'lumot va tavsiyalar amaliyotchi talaba va yosh kimyo o'qituvchilariga tavsiya etiladi. Taklif etilayotgan dars rejasi namunaviy savollar va topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Har bir savol uchta darajadagi vazifalarni o'z ichiga oladi: asosiy darajadagi vazifalar (idrok etish), modelga asoslangan vazifalar va yuqori darajadagi vazifalar. Topshiriqlar shartlari I.R.Asqarov, K.G'opirov, N.X.To'xtaboyevlarning "Kimyo 8" darsligi mazmuniga mos keladi.

РЕЗЮМЕ. Информация и рекомендации, представленные в статье, предназначены для практикующих студентов и молодых учителей химии. Предлагаемый план урока включает примеры вопросов и заданий. Каждое задание включает задания трёх уровней: задания базового уровня (восприятие), задания по образцу и задания повышенного уровня. Условия заданий соответствуют содержанию учебника «Химия 8» И.Р.Аскарова, К.Гопирова, Н.Х.Тохтабоева.

SUMMARY. The information and recommendations presented in this article are recommended for practicing students and young chemistry teachers. The proposed lesson plan includes sample questions and assignments. Each question includes tasks at three levels: basic level tasks (perception), model-based tasks and higher-level tasks. The terms of the tasks correspond to the content of the textbook "Chemistry 8" by I.R.Askarov, K.Gopirov, N.Kh.Tokhtaboyev.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

A.K.Bazarbaeva – assistent o‘qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: kognitiv, qobiliyat, sog‘lom avlod, kognitiv rivojlanish, tafakkur, mantiq, semiotika, multimedia texnologiyalari, interaktiv taxta, elektron darsliklar, raqamli platformalar, fasilitator.

Ключевые слова: когнитивный, способности, здоровое поколение, когнитивное развитие, мышление, логика, семиотика, мультимедийные технологии, интерактивная доска, электронные учебники, цифровые платформы, фасилитатор.

Key words: cognitive, abilities, healthy generation, cognitive development, thinking, logic, semiotics, multimedia technologies, interactive whiteboard, electronic textbooks, digital platforms, facilitator.

Kirish. Davlatimizda oliy ta‘limni tizimli isloh qilish, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Ilmiy tadqiqot markazlarida «International Association of Universities» dasturlariga ko‘ra bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning neyropedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish omillari ta‘sirini empirik nuqtayi nazardan baholash va tahlil qilish, kognitiv-kreativ muhit asosida talabalarni mustaqil ta‘lim faoliyatini rag‘batlashning didaktik jarayonlarini takomillashtirish, kognitiv o‘qitish texnologiyalarini hayotiy tajribaga asoslangan amaliyot bilan integratsiyasini ta‘minlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

2019-yil 8-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qarori [1], ishlab chiqilishi uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘limni samarali amalga oshirish uchun tarbiyachilik faoliyatini samarali tashkil etish, bo‘lajak tarbiyachining kuchli, jonli, chuqur kognitiv qobiliyatlarga ega bo‘lsa, u faol harakat qilish istagi, kuchini to‘liq bag‘ishlash, muqarrar qiyinchiliklarni, noqulay sharoitlarni va boshqa vaziyatlarni yengish uchun kognitiv faoliyat tarkibidagi keyingi tarkibiy qism motivatsiondir. Shunday ekan maktabgacha ta‘lim sifatiga alohida ahamiyat berib, talabalarni tafakkuri va har tomonlama intellektual salohiyat, kognitiv qobiliyatga ega bo‘lishlari uchun qulay usullarni va sharoitlarni yaratib berish kerak. Har bir egallashi lozim bo‘lgan bilimlar doirasini qiziqarli metodlar bilan boyitib, mustaqil va mantiqiy tafakkurini o‘stirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar bilan boyitish lozim. Zero sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir”.

Kognitiv faoliyat – bu shaxsning faol holati bo‘lib, u o‘rganishga intilish, aqliy zo‘riqish va bilimlarni egallash jarayonida ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bular: kognitiv faoliyatning reproduktiv darajasi, izohlash darajasi va ijodiy darajasi [2].

Kognitiv so‘zi inglizcha (lotin) “*cognize*” so‘zidan olingan bo‘lib, bilish, idrok yoki “aql bilan bog‘liq” degan ma‘nolarni bildiradi. yoki “*cognition*” - *bilish, tushinish* kabi ma‘nolarni beradi. O‘z o‘rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir [2].

Kognitologik izlanishlar doirasida shakllanayotgan kreativlik konsepsiyasi fanlararo tadqiqot obyekti bo‘lib psixologiya, falsafa, iqtisodiyot, genetika, kompyuter texnologiyasi, neyrofiziologiya, evristika kabi ilmiy

yo‘nalishlar integratsiyasini taqozo etadi. Kognitiv rivojlanish, axloqiy va ma‘naviy husniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Pedagoglar, tarbiyalanuvchilarning axloqiy taraqqiyotini ta‘minlash uchun o‘zaro ehtirom va hissiy intuitsiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo‘llashlari kerak.

O‘ziga xos jihat: tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning axloqiy muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu, tarbiyalanuvchilarning ishlashdagi ma‘naviy yutuqlarini qo‘llab-quvvatlaydi, mobil ilova va virtual o‘qitish platformalari orqali tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratiladi. Bu yangi texnologiyalar ularning fikrlash jarayonlarini yangi darajaga olib chiqishi mumkin. Jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish. Kognitiv rivojlanish, jamoaviy ishlash va effektiv muloqotda ishtirok etishni ham talab qiladi. Bo‘lajak tarbiyachilar jamoa sifatida ishlashga o‘rganishlari va boshqalar bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatishga imkon yaratishlari kerak. Bu jarayonda ijodiy va tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, innovatsion pedagogik texnologiyalar va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda ta‘lim faolligi muammosini falsafa (gnoseologiya), psixologiya (kognitiv psixologiya), mantiq, semiotika va boshqa fanlar o‘rganadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta‘lim faoliyati amaliy ehtiyojlar bilan ta‘lim jarayonlarini boshqarish, ta‘limga doir ko‘nikmalar yordamida o‘qitish jarayonini qulaylashtirish, axborot texnologiyalaridan jadal foydalanish bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sur‘ati ta‘lim faoliyati subyektiga jiddiy talablarni qo‘yadi. Chunki ta‘lim jarayoni insonsiz bo‘lishi mumkin emas.

M.Jumayevning fikricha, ta‘lim inson qobiliyati, izlanuvchanligi, mantiqiy kamolot darajasi hamda uning tafakkur organi – miyasiga bog‘liq [3].

V.S.Muxina kognitiv tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish bilan birga kognitiv qobiliyat talabaning asosiy faoliyati bo‘lib, u talabaga intellektual rivojlanish, bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘plash uchun muhim ahamiyatga egadir [4].

Kognitiv qobiliyatlar insonning intellektual va refleksiv qobiliyatlarining kombinatsiyasi bo‘lib, har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta‘minlash bilan birga kognitiv (bilish) qobiliyatlari atrofdagi dunyoni bilishga ham qaratilgan ichki va tashqi omillar ta‘siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir [6].

J.S.Saidov bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi pedagogikada muhim muammo hisoblanadi, ammo bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun bir qator vazifalar

mavjud ekanligin isfotladi. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlari – bu tarbiyachining ta'limga bo'lgan munosabatini, berilgan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatlarini, ijodiy va tanqidiy fikr yuritishni o'z ichiga oladi. Bu qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak tarbiyachilarning malakasini oshirish va ularning tashkilotlarida samarali ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Pedagogik jarayondagi muammolar bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini aniq va sifatli amalga oshirishga halal beradi. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qancha pedagogik muammolar mavjud [5].

Tahlil va natijalar. Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini samarali rivojlantirish ta'lim tizimida muhim vazifa bo'lib, bu borada bir qator yechimlar va kompleks yondashuvlar zarur. Kognitiv qobiliyatlar talabalarning bilim olishga bo'lgan qobiliyati, muammoli vaziyatlarni anglash va hal qilish, mustaqil fikrlash hamda o'z-o'zini boshqarish salohiyatini o'z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatlarni shakllantirishda ta'lim jarayonining tashkiliy va mazmuniy jihatlari, shuningdek, pedagogik yondashuvlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

*Birinchi*dan, muammoning asosiy yechimlaridan biri – talabalarni tegishli kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlashdir. Bu orqali nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar ham shakllantiriladi, bu esa o'z navbatida talabalarning tafakkur va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

*Ikkinchi*dan, o'quv muassasalarini zamonaviy o'quv vositalari va resurslar bilan ta'minlash ham dolzarb yechimlardan biridir. Multimedia texnologiyalari, interaktiv taxta, elektron darsliklar, raqamli platformalar-bularning barchasi bo'lajak talabalarning diqqatini jalb qilish, vizual va eshituv orqali axborotni samarali o'zlashtirish imkonini oshiradi.

*Uchinchi*dan, hozirgi kunda o'qituvchidan faqat bilim yetkazuvchilik emas, balki murabbiy, fasilitator, yo'naltiruvchi sifatida faol bo'lish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'qituvchining interfaol, muammoli, evristik va loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishi, talabalarni o'quv faoliyatiga qiziqitirishda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda pedagog quyidagi pedagogik vositalardan foydalanadi:

Motivatsiyani shakllantirish: o'quvga bo'lgan ichki qiziqishni uyg'otish, mustaqil izlanishga undovchi topshiriqlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish.

Interfaol o'qitish metodlari: munozaralar, rolli o'yinlar, aqliy hujum, "fikrlar xaritasi", guruhli loyihalar

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida»gi PQ-4312-son Qarori.
2. Amanova G.A. Talabani kognitiv faoliyati tuzilishi va turlari. // Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 2023. –P. 506–511.
3. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish soha tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. – Toshkent: 2007.
4. Мухина В. С. Детская психология. – Москва: «ООО Апрель Пресс, ЗАО Изд-во ЭКСМО-Пресс», 2000.
5. Saidov J.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati. // Academic research in educational sciences, volume 2, issue 9, 2021. – P. 1046-1050.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
7. Bazarbaeva A.K. Features of the methodology for forming cognitive skills of future educators. // Science and Education in Karakalpakstan. // №3/1 (34) 2023. 119-124-b.
8. Bazarbaeva A.K. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2023, 8-son, 229-235-b.

yordamida talabalar orasida muloqotni faollashtirish va fikrlash jarayonini kuchaytirish.

Evristik o'qitish: talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiluvchi, uzluksiz jarayon bo'lib, u pedagogik usullar, innovatsion yondashuvlar, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, individual o'rganish uslublarini hisobga olish orqali ta'lim samaradorligini oshirish va har bir talabada yuqori kognitiv salohiyatni yuzaga chiqarish mumkin bo'ladi [7].

Ta'limda biluvchi shaxsi, tabiiy qobiliyatlari, uni qurshagan jamiyat katta rol o'ynaydi. Shuning uchun tezda yangi bilimlarni o'zlashtirish, umumlashtirish muhim.

Kognitiv xususiyatlarning asosiy turlari quyidagilar:

Fikrlash	ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, yangi ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish jarayoni.
Yodlash	insonning o'z voqealarini eslash va turli xil ma'lumotlarni saqlash qobiliyati.
Idrok	umumiy dunyo haqidagi bilimlarni yig'ish va unga asosan ko'rgazmali yoki so'zli xulosalar chiqarish
Differentsiya (farqlash)	turli obyektlar, holatlar yoki voqealar o'rtasidagi farqlarni tanish.
Hissiyatlar va diqqat	diqqatni biror narsaga jalb qilish va uni uzoq vaqt davomida saqlash qobiliyati.
Muammo yechish	notanish va qiyinchliklar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda aqlni qo'llash.
Ta'lim olish	yangi bilimlar va mahoratlarini o'rganish jarayoni.
Qaror qabul qilish	yangi ma'lumotlar va tajribalar asosida qarorlar qabul qilish.

Ta'lim jarayoni reallikda integrallashgan tavsifga ega: ta'lim o'qitish jarayonida, ilmiy tadqiqot jarayonida va falsafiy kognitiv jarayonida sodir bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachining ta'limga qobiliyatlarini tobora istiqbolli yo'nalishi qobiliyatning faoliyat boshidan to oxirigacha izchil o'sib borishidir. Ya'ni, bo'lajak tarbiyachining ta'limdagi faolligi yangicha yondashuvlarga intilish, muammoni hal qilishda noodatiy va ijodiy yondashuvlarni izlash, qat'iyatlilik, mustaqillik va ta'lim faoliyatining natijadorligiga erishishi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv salohiyati ularning psixik faoliyati va bilish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanadi. Ularning emotsional reaksiyalari va sezgi asosidagi idroki asta-sekin tahliliy, maqsadga yo'naltirilgan, ongli idrok shakliga o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda esa fikrlash va idrok qilish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bu bosqichda ko'rgazmali-obrazli tafakkur ustunlik qiladi.

REZYUME. Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi muhimdir. Kognitiv rivojlanish, axloqiy va ma’naviy husniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Pedagoglar, tarbiyalanuvchilarning axloqiy taraqqiyotini ta’minlash uchun o‘zaro ehtirom va hissiy intuitsiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo‘llashlarini o‘z ichiga olgan. O‘ziga xos jihat: tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning axloqiy muammolarni hal qilish qobiliyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu tarbiyalanuvchilarning ishlashdagi ma’naviy yutuqlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится, что в развитии когнитивных способностей будущих воспитателей важно их духовно-нравственное развитие. Когнитивное развитие тесно связано с нравственными и духовными качествами. Это включает в себя применение педагогами педагогических подходов, основанных на взаимном уважении и эмоциональной интуиции, для обеспечения нравственного развития учащихся. Особенность: в развитии когнитивных способностей воспитателей важную роль играет также их способность решать нравственные проблемы. Это поддерживает духовные достижения воспитанников в работе.

SUMMARY. The article states that in the development of cognitive abilities of future educators, their spiritual and moral development is important. Cognitive development is closely linked to moral and spiritual qualities. This includes the use by educators of pedagogical approaches based on mutual respect and emotional intuition to ensure the moral development of students. Feature: in the development of cognitive abilities of educators, their ability to solve moral problems also plays an important role. This supports the spiritual achievements of the pupils in work.

BADIIY HIKOYALARDAN FOYDALANISH ORQALI INGLIZ TILINI O‘RGANUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

A.Bisenova – *assistent o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: badiiy hikoya, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili o‘qitish, interaktiv metod, madaniy kontekst, ijodiy fikrlash, empatiya, motivatsiya, kommunikativ yondashuv.

Ключевые слова: художественный рассказ, коммуникативная компетенция, обучение английскому языку, интерактивный метод, культурный контекст, творческое мышление, эмпатия, мотивация, коммуникативный подход.

Key words: literary storytelling, communicative competence, teaching English, interactive method, cultural context, creative thinking, empathy, motivation, communicative approach.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ingliz tilida erkin muloqot qilish har bir o‘quvchi va talabadan zarur ko‘nikma sifatida talab etilmoqda. Shu bois ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning til vositalaridan foydalanib, ma’lum ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatidir. So‘nggi yillarda til o‘qitish metodikasida badiiy hikoyalar til o‘rganish vositasi sifatida alohida o‘rin egallamoqda. Chunki badiiy matnlar nafaqat lug‘at boyligini oshiradi, balki madaniy kontekstni anglash, nutq ohangini his qilish va muloqotdagi tabiiylikni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada badiiy hikoyalardan foydalanish orqali ingliz tili o‘rganuvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo‘llari yoritiladi.

Metodlar. Tadqiqot davomida ingliz tili o‘qitish jarayonida badiiy hikoyalardan foydalanishning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Ular quyidagilardan iborat:

Adabiyotlarni tahlil qilish metodi. Ushbu metod orqali badiiy hikoyalarning chet tili o‘qitishdagi o‘rni, ularning til o‘rganuvchilarga ta’siri, kommunikativ yondashuv bilan bog‘liqligi haqidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, Brumfit va Carter [1] Collie va Slater [2], hamda Tomlinson kabi tadqiqotchilarning asarlaridan foydalanildi [4].

Natijada badiiy hikoyalar til o‘qitishda nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik va kommunikativ omil sifatida ham ahamiyatli ekani aniqlangan.

Eksperimental metod. Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasasining Nukus davlat pedagogika instituti ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan 40 nafar 2-kurs talabalari ishtirok etdi. Ular ikki guruhga — nazorat guruhi (20 nafar) va tajriba guruhi (20 nafar)ga ajratildi. Tajriba muddati ikki oyin tashkil etdi.

Nazorat guruhida darslar an’anaviy metod asosida olib borildi (til ko‘nikmalari integratsiyasi va kommunikativ leksika).

Tajriba guruhida esa har bir darsda badiiy hikoyalar asosida kommunikativ mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Dars jarayonida talabalarining og‘zaki nutq, eshitib tushunish, so‘z boyligini amaliy qo‘llash, hamda muloqot jarayonida o‘z fikrini mustaqil ifodalash ko‘nikmalari kuzatib borildi. Tajriba davomida diagnostik testlar, intervyyular va reflektiv yozuvlar orqali o‘zgarishlar o‘lchandi.

Kuzatish va suhbat metodi.

Ushbu bosqichda talabalar faoliyati tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatishning asosiy maqsadi — talabalarining ingliz tilidagi muloqotdagi faolligi, ishonchliligi, emotsional reaksiyasi va nutqning tabiiyligidagi o‘zgarishlarni aniqlash edi. Tajriba yakunida talabalar bilan individual va guruhli suhbatlar tashkil etilib, ular o‘z fikrlarini quyidagi yo‘nalishlarda bildirdilar:

- badiiy hikoyalar orqali o‘qish jarayonining qiziqarli va motivatsion jihatlari;

- tilni tabiiy kontekstda o‘rganishning qulayligi;

- o‘z fikrini erkin ifoda etishdagi o‘zgarishlar.

Darslarda interaktiv va kommunikativ yondashuv asosidagi mashg‘ulotlar tashkil etildi, jumladan:

- hikoya mazmunini tahlil qilish va asosiy g‘oyani muhokama qilish;

- rolli o‘yinlar (hikoya personajlari rovida muloqot qilish);

- dialog va debatlar (personajlarning qarorlarini tahlil qilish);

- yakuniy voqeani o‘zgartirish yoki muqobil yakun yozish;

- ijodiy yozuv mashqlari va nutqiy refleksiya topshiriqlari.

Ushbu faol metodlar orqali o'quvchilar faqat hikoyani o'qish emas, balki u bilan til orqali faol muloqot qilish, muallif fikrini talqin etish va o'z pozitsiyasini asoslash imkoniga ega bo'ldilar. Natijada o'quvchilar tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirdilar [1].

Natijalar. Tadqiqot davomida o'tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy hikoyalarga asoslangan darslar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farq diagnostik testlar va suhbat natijalariga ko'ra quyidagicha aniqlandi:

So'z boyligi — tajriba guruhi ishtirokchilarining faol lug'at zaxirasi o'rtacha 25% ga oshdi. Bu, ayniqsa, sinonim va antonimlardan to'g'ri foydalanish, iboraviy birliklarni qo'llash va kontekstda yangi so'zlarni tanlash ko'nikmasida yaqqol namoyon bo'ldi.

Nutq tezligi va tabiiyligi - og'zaki muloqot jarayonida nutqning tabiiyligi va uzluksizligi 30% ga oshgani kuzatildi. Talabalar dialog va hikoya asosidagi rolli o'yinlarda kamroq pauza qilish, tabiiy intonatsiyani qo'llash va o'z fikrini aniqlik bilan ifodalashda muvaffaqiyat ko'rsatdilar.

Madaniy kontekstni tushunish darajasi - badiiy hikoyalardagi ijtimoiy-madaniy tafovutlarni anglash, personajlarning nutq uslubi va xulq-atvoridagi madaniy o'ziga xosliklarni tushunish 40% ga oshdi. Bu esa o'quvchilarning ingliz tilidagi muloqotda pragmatik moslashuvchanlikni kuchaytirganini ko'rsatdi.

Tajribadan so'ng o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, talabalar badiiy hikoyalar orqali ingliz tilida so'zlashishdan qo'rquv hissini yengib o'tgan, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga motivatsiyasi ortgan, shuningdek, nutqiy ishonch hosil qilgan. Ularning fikricha, hikoya asosidagi darslar an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan ko'proq qiziqarli, mazmunli va emotsional kechgan.

Badiiy hikoyalar orqali o'quvchilar quyidagi kommunikativ jihatlarida o'sish kuzatganini bildirganlar:

Interaktivlik — muloqotli o'yinlar, sahnalashtirish va muhokama orqali hamkorlikda fikrlash ko'nikmalari rivojlangan;

Empatiya — hikoya qahramonlarining his-tuyg'ularini tushunish orqali o'z nutqida emotsional ohang va munosabat ifodalashni o'rganishgan;

Ijodkorlik — hikoya yakunini o'zgartirish, yangi dialoglar tuzish orqali ijodiy fikrlash faol bo'lgan.

Muhokama. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, badiiy hikoyalardan samarali foydalanish o'qituvchidan ma'lum metodik yondashuvni talab etadi. Xususan:

Hikoya tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi (A2–B2), madaniy qiziqishlari va mavzuga nisbatan motivatsiyasi hisobga olinishi zarur. Murakkab matnlar o'rniga qisqa, sodda, lekin mazmunli hikoyalar tanlash tavsiya etiladi.

Interaktiv metodlardan foydalanish — har bir darsda hikoya mazmuni atrofida muloqotli o'yinlar, munozaralar, drammatizatsiya va yozma refleksiya mashqlari tashkil etilishi kerak. Bunday faol metodlar o'quvchilarni faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etadi.

Muloqotga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash — hikoya tahlili grammatik yoki leksik nuqtayi nazardan emas, balki muloqot kontekstida olib borilishi lozim. Har bir matn o'quvchiga o'z fikrini bildirish, bahslashish va shaxsiy munosabatini ifoda etish imkonini berishi kerak [5].

Madaniy jihatlarni tahlil qilish — hikoyalarda keltirilgan ijtimoiy kontekst, qadriyatlar, va madaniy tafovutlar ustida muhokama yuritish o'quvchilarda intermadaniy kompetensiyani shakllantiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida badiiy hikoyalar orqali o'qitishning psixologik foydalari ham kuzatildi. O'quvchilar bunday mashg'ulotlarda o'zini erkinroq his qilgan, nutqdagi xatolardan qo'rqmagan, va o'z fikrini ifodalashda mustaqillik ko'rsatgan. Bu esa affektiv filtring pasayishiga va o'rganish samaradorligining oshishiga sabab bo'lgan [3].

Yakuniy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy hikoya asosidagi mashg'ulotlar ingliz tili o'rganuvchilarda quyidagi o'zgarishlarni keltirib chiqargan:

- kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlari (lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik) rivojlangan;
- madaniyatlararo muloqot malakalari kuchaygan;
- til o'rganishga nisbatan ichki motivatsiya mustahkamlangan.

Natijalar ko'rsatganidek, badiiy hikoyalar o'quvchilarni tilni nafaqat grammatik tizim, balki tirik muloqot vositasi sifatida anglashga yo'naltiradi. Shu bois, bu yondashuv zamonaviy ingliz tili o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy hikoyalardan foydalanish ingliz tili o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tajriba davomida o'quvchilar nafaqat lingvistik bilimlarini mustahkamlashgan, balki o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin ifoda etish, suhbatdosh bilan samarali muloqot o'rnatish, hamda madaniy kontekstni to'g'ri anglash ko'nikmalarini rivojlantirgan. Badiiy hikoyalar o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlar orqali o'rganish imkonini yaratgan va shaxsiy tajriba bilan bog'lab o'rganish jarayonini tabiiylashtirgan.

Bunday yondashuv o'quvchilarda tilni chuqurroq anglash, ya'ni so'z va iboralarni kontekstda to'g'ri qo'llash, ularning ma'no nozikliklarini farqlash;

Emotsional tafakkur va estetik sezgirlikni shakllantirish; Ijodiy fikrlash va mustaqil nutq tuzish qobiliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Shuningdek, badiiy hikoyalar orqali o'quvchilar madaniy kompetensiyani ham egalladilar — ular ingliz madaniyatiga xos qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari, nutq uslublari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa ularni nafaqat til o'rganuvchi, balki madaniyatlararo muloqot ishtirokchisi sifatida shakllantirishga xizmat qildi.

O'qituvchilar uchun badiiy hikoyalar til o'rgatish jarayonini boyituvchi, motivatsiyani oshiruvchi va muloqot markazidagi o'quvchi rolini kuchaytiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Ayniqsa, hikoya asosida rolli o'yinlar, debatlar, ijodiy yozuv mashqlari va refleksiya topshiriqlari tashkil etish o'quvchilarni faol o'rganishga undaydi.

Kelgusida bu yo'nalishni yanada rivojlantirish maqsadida:

o Onlayn platformalar (masalan, Edmodo, Google Classroom, Duolingo Stories, BBC Learning English) orqali interaktiv hikoya asosidagi mashg'ulotlarni keng joriy etish;

o Multimediya resurslari (audiokitoblar, animatsion hikoyalar, video drammatizatsiyalar)ni dars jarayoniga integratsiya qilish;

○ О'қувчиларнинг hikoya yaratish va hikoya aytish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish;

○ Badiiy hikoyalar asosida madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha amaliy loyihalar va xalqaro onlayn almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, badiiy hikoyalar ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni boyituvchi, integrativ va innovatsion metodik vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Bu yondashuv o'quvchilarni faqat grammatik jihatdan emas, balki madaniy, emotsional va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham tilni mukammal o'zlashtirishga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Brumfit C.J., Carter R.A. Literature and Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1986.
2. Collie J., Slater S. Literature in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: «Pergamon», 1982.
4. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2001.
5. Amonova N. Badiy matn asosida ingliz tili o'qitishning samarali usullari. // Filologiya masalalari jurnali, №4, 2022.

